

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV  
XO'JALIK VAZIRLIGI**

**SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI**

**BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT  
YO'NALISH TALABALARI UCHUN  
“MUTAXASSISLIKKA KIRISH”  
FANIDAN  
LEKTSIYALAR KURSI**

**Samarqand sh.**



Tuzuvchi: Xolmurzayev M.– Buxgalteriya hisobi va audit kafedra mudiri. n.f.n.,  
dosent.

Taqrizchilar: Qurbanov I. - SamQXI Buxgalteriya hisobi va audit  
kafedra dotsenti.

Mirzayev Q.J. – SamISI Menejment kafedراسi mudiri, dosenti.

Lektsiyalar kursi SamQXI Ilmiy kengashida tasdiqlangan.

(2010 yil 30 aprel 9- son bayonnoma)

## MUNDARIJA

Betlar	
Kirish.....	5
1."Oliy ta'lim haqidagi Nizom".....	6
2.Samarqand qishloq xo'jalik instituti.....	8
3.Sam QXI talabasining ma'naviy qiyovasi.....	14
4.Institutda o'qish vaqti va guruh sardorining vazifalari....	14
5. Talabalarning huquq va majburiyatlari.....	16
6.Oliy maktabda o'qishning o'ziga xos xususiyati va ma'suliyati.	17
7.Ma'ruzani tinglash va yozib olish.....	19
8.Seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish.....	23
9.Kitob ustida ishlash.....	37
10.Talaba bilimini reyting usulida baholash.....	40
11.Talabalar tomonidan qoldirilgan darslarni o'zlashtirish tartibi.....	44
12. Institut binolaridagi tartib-qoidalar.....	46
13.Buxgalteriya hisobining qisqacha tarixi va mohiyati.....	47
Xulosa .....	48
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	50

## **KIRISH**

1997 yilda O'zbekiston Respublikasida "Ta'lim to'g'risida" qonun qabul qilindi va "Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi tasdiqlandi", Bu yesa, o'z navbatida, ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida chuqur islohatlar o'tkazish zaruriyatini qo'yib, ta'limni davlatimiz siyosatining ustivor yo'nalishiga aylantirdi.

Mustaqillik yillar mobaynida ta'lim sohasida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ta'limning barcha darajalari uchun standart loyihalari ishlab chiqildi, abiturentlarni test asosida qabul qilish joriy yetildi, talaba va o'quvchilarning bilimlarini nazorat yetishniig reyting tizimi amalga oshirildi. Iste'dodli o'quvchi yoshlarni qo'llab-quvvatlashga doir davlat siyosati izchillik bilan amalga oshirilmoqda, ko'plab nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan mustahkam amaliy aloqa o'rnatilmoqda. Ta'lim jarayoni mazmuni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi, ta'limning barcha sohalarida ma'naviyat, iqtisodiyot va huquq asoslarini o'rganish joriy yetildi, chet tillarning o'rganilishiga katta e'tibor berilmoqda.

## **AZIZ TALABA DO'STIM!**

Ana shunday vaqtda Sizning hayotingizda ajoyib davr - talabalik davri boshlandi. Sizning bu qutlug' qadamingiz jonajon Vatanimiz mustaqillikka yerishgan, xalqimiz o'z taqdirini o'z qo'lga olgan, o'ziga xos taraqqiyot yo'liga tushgan ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida katta muvaffaqiyatlarga yerishilayotgan tarixiy davrga to'g'ri keldi.

Siz tengqurlaringiz bilan Samarqand qishloq xo'jalik institutning talabasi bo'ldingiz, bilimning, zamonaviy ixtisoslik va yuqori malaka olishning keng, mashaqqatli, ammo ilhombaxsh yo'liga kirdingiz.

Mustaqil Vatan Sizga zamonaviy bilimlar xazinasini yegallashga, sharafli kasb yegasi - "Buxgalter va auditor" bo'lishga, jamiyatda mo'tabar va munosib o'rin yegallashga katta imkoniyat va shart-sharoitlar yaratmoqda. Siz ana shu g'amxo'rlikning qadriga yeting. Sizga bildirilgan ishonchni oqlashga harakat qiling.

Buning uchun Siz, talabalikning dastlabki kunlaridan boshlab:

1. Ta'lim jarayonida domlalarining berayotgai bilim, malaka va ko'nikmalarni qunt bilan o'zlashtirib boring;

2. Kitoblar, manbalar bilan ishlash, ularni konspektlashtirish, o'z oldingizga murakkabroq muammolarni qo'yish va ularni yecha olish mahoratini yegallang;

3. O'zingizda mustaqil, ijodiy fikr yuritish ruhiyatini, o'z fikringizni mutlaqo mustaqil, ravon, go'zal va lo'nda ifoda yetish malakasini shakllantiring;

4. O'zingizda batartiblik, mas'uliyat, javobgarlik, ijtimoiy faollik hissini uyg'otishingiz lozim;

5. Ahloqan pok, madaniyatli, jismonan chiniqqan bo'lmog'ingiz lozim.

Prezidentimiz Islom Karimovning quyidagi chaqiriqlarini siz qalbingizga jo qilib oling:

-Bizning yurtimizda yashayotgai har bir inson o'z taqdirini Vatan taqdiri bilan chambarchas bog'lagan holda kurashishi va mehnat qilishi lozim!

-Butun kuch-g'ayratini ona-yurtga, uning buyuk kelajagiga baxshida yetish kerak!

- Aziz Vatanimizni asrash va yuksaklikka ko'tarish darkor!

- Vatan oldida insoniy va fuqarolik burchini vijdonan ado yetish lozim!

Qo'lingizdagi mazkur kitobcha Sizga ilm sirlarini bilib olishda, zamonaviy buxgalter mutaxassisligini yegallashda ko'maklashadi. Uni qunt bilan o'qing va mag'zini chaqing.

## **1. Oliy ta'lim xaqidagi «Nizom»**

Umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb - hunar ta'limi negizidagi oliy ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining mustaqil turi bo'lib «Ta'lim to'g'risida» hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risidagi» O'zbekiston Respublikasi Qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi. Oliy ta'lim sohasidagi Davlat siyosati bu quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Ta'lim tarbiyaning gumanistik, demokratik mazmunda yekanligi;
2. Universitet ta'limining ustivorligi;
3. O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'limning uzluksizligi va ketma – ketligi;
4. Ta'lim tizimining dunyoviy mazmunda yekanligi;
5. Davlat ta'lim standartlari ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
6. Ta'lim dasturlarini tanlashga umumiy va tabaqalashgan yondashuv;
7. Bilimdonlik va iste'dodni rag'batlantirish;
8. Oliy ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish;
9. Oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarish birlashuvini ta'minlash.

Talabalarni oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish davlat grantlari va to'lov kontrakti asosida abituriyentlarning bilim darajasini test va boshqa sinov turlariga binoan aniqlash yo'li orqali amalga oshiriladi.

Oliy ta'limning maqsadi O'zbekistonni yuksak rivojlangan demokratik mamlakatlar darajasiga ilmiy texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish bilan ta'minlay oladigan yuksak ma'naviy, madaniy va axloqiy fazilatlarga yega yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar yetishtirishdir.

Oliy ta'limning asosiy vazifalari quyidagilar:

1. Davlat ta'lim standartlariga muvofiq ilg'or zamonaviy ta'lim va kasb - hunar dasturlari asosida yuqori samarali o'qitishni tashkil qilish va malakali kadrlar yetishtirishni ta'minlash.

2. Mamlakatlarning iqtisodiy ijtimoiy rivojlanishi, istiqbollari jamiyat talablariga binoan fan, texnika, ilg'or texnologiya, iqtisodiyot va madaniyatning zamonaviy yutuqlari asosida kadrlar o'qitishini tashkil qilish va uning uslublarini muntazam takomillashtirish.

3. Yoshlarni milliy tiklanish mafkurasi va umum insoniy qadriyatlarini bilish asosida mustaqillik g'oyalari, Vatan, oila, tabiatga mehr va insonparvarlik ruhida tarbiyalash. Davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish asosida ta'lim xizmatlari bozorida raqobatli muhitni shakllantirish.

Oliy ta'lim muassasalari mutaxassislar tayyorlashni oliy ta'lim yo'nalishlari va ixtisosliklari va klassifikatoriga muvofiq amalga oshiradi. Oliy ta'lim muassasalari tomonidan ta'lim yo'nalishlari va ixtisosliklarining ro'yxati ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida marketing rivojlanishi bilan aniqlab boriladi va mehnat bozori talabi hisobga olingan holda davriy qayta ko'rib chiqiladi. Oliy ta'lim 2 pog'onaga bo'linadi:

1. Bakalavriat,
2. Magistratura.

**Bakalavriat** ixtisosliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan o'rta maxsus, o'rta kasbiy ta'lim negizida muddati kamida 4 yil davom yetadigan tayanch oliy ta'limdir. Bakalavr dasturi tugallangandan so'ng bitiruvchilarga Davlat Attestasiyasi yakunlariga binoan kasb bo'yicha (bakalavr) darajasi beriladi va Davlat tomonidan tasdiqlangan namunada kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish yoki oliy ta'limning keyingi bosqichida o'qishni davom yettirish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

**Magistratura** - aniq ixtisoslik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriatdan keyin uning negizida ta'lim muddati kamida 2 yil davom yetadigan oliy ta'limdir. Magistratura dasturini tugatgan bitiruvchilarga «Magistr» darajasi va diplom beriladi.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim muassasalarining quyidagi turlari joriy yetiladi:

1. Universitet
2. Akademiya
3. Institut

**Universitet** - 1) Bilim sohalari va bilim berish yo'nalishlarining keng qamrovi bo'yicha oliy va undan keyingi ta'lim turlari dasturlarini amalga oshiradi;

2) Oliy ta'lim muassasalari turli iqtisodiy sohalar mutaxassisi, kasb hunar kollejlari va akademik liseylar, pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish amaliyotini bajaradi;

3) Fanlar keng qamrovi bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar olib boradi.

4) Bilimlarning tegishli sohalari bo'yicha ilmiy va uslubiy markaz bo'ladi.

**Akademiya** - 1) Muayyan bilim sohaslarida va kadrlar tayyorlash yo'nalishlari bo'yicha oliy va undan keyingi ta'limlarning kasbiy ta'lim dasturlarini amalga oshiradi;

2) Ma'lum sohalar uchun oliy malakali kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug'ullanadi;

3) Fan, madaniyat, san'at sohalari bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar bajaradi;

4) O'z sohasi bo'yicha yetakchi ilmiy va uslubiy markaz bo'ladi.

**Institut** - 1) Odatda bilimlarning bir sohasi doirasida oliy va undan keyingi tashkilotlarning kasbiy ta'lim darslarini amalga oshiradi;

2) Xalq xo'jaligining ma'lum sohalari uchun mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni amalga oshiradi;

3) Amaliy va fundamental ilmiy tadqiqotlar olib boriladi. Oliy ta'limning

muassasalarida yo'nalishlar bo'yicha fakultetlar, bo'limlar va talabalar akademik guruhlari tuziladi.

## **2. SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUT**

Samarqand qishloq xo'jalik instituti Markaziy Osiyodagi eng keksa Oliy o'quv yurtlaridan biri bo'lib, 1929 yilda O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarori bilan tashkil etilgan.

Institutini tashkil etishda O'zbekiston, Rossiya, Ukraina mutaxassisleri faol ishtirok etdilar.

O'tgan 80 yil davomida institut nafaqat O'zbekiston balki Markaziy Osiyo, Ozarbayjon, Gruzziya, Xitoy, Mug'uliston, Afg'oniston, Bolgariya, Misr va Kuba mamlakatlari uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maskani bo'lib xizmat qildi.

O'tgan davr mobaynida institutda 40 mingdan ziyod oliy malakali mutaxassislar tayyorlandi. Shuningdek 4,5 mingdan ziyod qishloq xo'jalik rahbarlari va mutaxassislar o'z malakalarini oshirdilar. Institut o'zi yetishtirgan kadrlar bilan haqli ravishda faxrlanadi. Shulardan 30 nafar mehnat qahramonlari, O'zbekiston, Rossiya, Tojikiston fanlar Akademiyasining akademiklari, MHD mamlakatlaridagi yirik institutlarning rahbarlari, kafedra mudirlari, hukumat rahbarlari, qonunchilik organlari rahbarlari, 5 nafar Vazirlar va o'nlab viloyat hokimlaridir.

Institutda 100 dan ortiq doktorlik, 400 dan ziyod nomzodlik dissertasiyalari tayyorlangan va himoya qilingan. Shulardan 22 ta doktorlik va 55 ta nomzodlik dissertasiyalari O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin bajarilgan va himoya qilingan.

Hozirgi kunda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoni "Ta'lim haqidagi qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida xalqaro andozalarga mos ravishda olib borilmoqda.

Institutdagi 4 ta fakultetda umumiy agronomiya, agrokimyo va tuproqshunoslik qishloq xo'jaligi ekinlari urug'chiligi va seleksiyasi, o'simliklar himoyasi va karantini, o'rmonchilik, ipakchilik, iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida), buxgalteriya va audit, fermer xo'jaligini boshqarish, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va ularni dastlabki qayta ishlash texnologiyasi, veterinariya, zootexniya, qorakulshunos texnolog va kasbiy ta'lim yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda. Institutda 17 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishida 3000 dan ziyod talaba, 21 ta magistrant, 30 ta aspirant ta'lim olishmoqda.

Institutda faoliyat ko'rsatayotgan 20 ta kafedralarda 27 nafar fan doktorlari, professorlar, 140 dan ziyod fan nomzodlari, 190 ta katta o'qituvchilar va 80 ta assistentlar mehnat qilmoqdalar. Shular orasida akademiklar va 10 dan ziyod xizmat ko'rsatgan fan arboblari va qishloq xo'jalik xodimlari bor.

Bakalavrlar, magistrlar tayyorlash bo'yicha o'quv uslubiy ishlar, o'quv jarayoni sifati to'g'risidagi nazorat, akademik liseylar va kollejlardan aloqalar, o'quv uslubiy va magistratura bo'limlari, malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash markazi, axborot resurslari markazi, institut fakultetlari va kafedralari tomonidan amalga oshirildi.



Prezident farmonlari, Respublikada qabul qilinayotgan ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan qonunlarni tushuntirish, shuningdek ma'naviyat, tarbiyaviy ishlar, ijtimoiy madaniy, sport sohasidagi chora tadbirlarni tashkil qilish ma'naviyat ma'rifat markazi, fakultetdagi dekan muovinnlari, "Kamolot" ijtimoiy harakati ijtimoiy fanlar kafedrasini, professor o'qituvchilar tomonidan amalga oshirilad Institut professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar aspirant va magistrantlar faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishdir. Buni asosan Davlat Grantlari asosida va Respublikadagi ilmiy muassasalar, MND va boshqa xorijiy davlatlari oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikda olib borilmoqda.

So'nggi 5 yilda 15 ta mualliflik guvohnomalari va patentlar olindi, 10 ta rasionazatorlik takliflari va ishlab chiqarishga tavsiyalar, 7 ta monografiya, 20 ta broshyura, 6 ta ilmiy ishlar tomlari, 35 ta darsliklar, 150 ta plakat, 10 ta spravochniklar tayyorlandi. Institut olimlarining ilmiy ishlari MND mamlakatlarida va chet yellarida chop etilmoqda. Institutda o'quv va ilmiy adabiyotlarni o'rganish uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Darsliklar va o'quv qo'llanmalari institutning axborot-resurs markazida joylashgan. Uning fondi 600 ming birlik.

Institutda doktorlik va nomzodlik dissertasiyalarini himoya qilish bo'yicha 2 ta ixtisoslashgan kengash faoliyat ko'rsatayapti. Institut qoshida 13 ta ixtisoslik bo'yicha aspirantura 6 ta ixtisoslikda doktorantura mavjud.

Institutning moddiy texnika bazasi yildan yilga o'sib bormoqda. Kafedralar o'quv va ilmiy laboratoriyalar, zamonaviy asboblar, texnika va kompyuterlar bilan ta'minlangan. O'quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyasi, umumiy kompyuterlashtirish, masofali o'quv va yangi pedagogik texnologiyalar joriy qilingan.

So'nggi yillarda 90 ta auditoriyalarda qayta ta'mirlash o'tkazildi. Ta'limning 6 ta yangi yo'nalishi o'qitish bo'yicha sharoitlar yaratildi. Shuningdek magistraturaning 20 ta ixtisosligi bo'yicha ham ishlar olib borildi. Kafedralar yangi asbob-uskunalar bilan ta'minlanayapti. Asosiy bino va o'quv poligonida keng ko'lamda ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda. Institutning o'quv tajriba xo'jaligi va poligonida o'quv va ilmiy ishlar uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Talabalar institutdagi mehnat an'alariga sodiq qolgan holda ularni davom ettirmoqdalar, fermer xo'jaliklarida faol mehnat qilmoqdalar, ishlab chiqarishga ilmiy-texnikaviy va amaliy yordam ko'rsatmoqdalar.

Talabalar ilmiy jamiyati, badiiy havaskorlari Respublika va halqaro ko'riklarda faxrli o'rinnlarni egallab kelmoqdalar.

Institut sportchilari doimiy ravishda Respublika va viloyat musobaqalarida, xalqaro musobaqalar va olimpiadalarda ishtirok etmoqdalar. Ular orasida ko'plab sport ustalari va nomzodlar bor.

**Agronomiya fakulteti** 1929 yilda tashkil topgan. Bu davr ichida 13 mingta mutaxassis tayyorlangan.

Fakultetning 6 ta kafedrasida 7 yo'nalishda bakalavriat va magistrantlar tayyorlanmoqda. Shulardan agrokimyo, paxtachilik, tuproqshunoslik, dehqonchilik, sabzavotchilik, o'simlikshunoslik, dala ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi bo'yicha aspirantura va doktorantura mavjud.

Bugungi kunda agronomiya fakultetida o'simliklarni himoya qilish, agrokimyo, tuproqshunoslik, o'simlikshunoslik, seleksiya va urug'chilik bo'yicha ilmiy maktablar yaratilgan va muvaffaqiyat bilan faoliyat yuritmoqda.

Fakultetda kartoshka seleksiyasi va urug'chiligi bo'yicha chuqur izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek fermer xo'jaliklarida asosiy ekinlarni yetishtirishda o'g'itlar samaradorligini oshirish, ilmiy asoslangan agronomik, agrokimyoviy, urug'chilik konsalting xizmatini tashkil qilish ustida ishlamoqdalar.

**Veterinariya, zootexniya va qorakulchilik fakulteti** 1929 yilda tashkil topgan. O'tgan davr mobaynida fakultetda 15 mingdan ziyod veterinariya vrachlari, zootexnik va qorakulchilar tayyorlangan.

Hozirgi kunda fakultetning 6 ta kafedralarida 5 ta yo'nalish bo'yicha bakalavriyat va 7 ta ixtisoslik bo'yicha magistratura faoliyat ko'rsatayapti. Bular: diagnostika, hayvonlarni davolash, veterinar xirurgiya, patologiya, onkologiya va morfologiya, parazitlar kasalliklar, yuqumli kasalliklar, kinologiya va itlar kasalliklari, trening va ot kasalliklari, otchilik va tuyachilik, hayvonlar seleksiyasi va ko'paytirish, qorakulchilik va qoramolchilik mahsulotlarini yetishtirish. Kafedralarda aspirantura va doktorantura mavjud.

O'tgan yillar mobaynida fakultetda qo'yidagi ilmiy maktablar yaratilgan: parazitologiya, anatomiya va morfologiya, yuqumsiz kasalliklar, xirurgiya, epizotologiya, qishloq xo'jalik hayvonlarini urchitish, xususiy zootexniya va qorakulchilik muammolarini o'rganish va izlanishlar olib borish. Hozirgi kunda fakultetda parazitologiya, xirurgiya, fiziologiya, epizotologiya va mikrobiologiya, anatomiya va morfologiya hayvonlar seleksiyasi va qorakulchilik bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Fakultet olimlari fermer xo'jaliklariga chorvachilik fermalarini tashkil qilish va ilmiy asoslangan veterinariya davolash xizmatini konsalting tizimini tashkil qilishda yordam bermoqdalar.

**Iqtisodiyot va qishloq xo'jaligini boshqarish fakulteti** 1980 yilda tashkil topgan. O'tgan davr ichida iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi bo'yicha 8 mingta mutaxassis tayyorlandi.

Fakultetning 3 ta kafedrasida 3 ta yo'nalishda bakalavriyat, magistratura va aspiranturada mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Fakultet kafedralarida iqtisodiyot, qishloq xo'jalikni boshqarish va buxgalteriya hisobi bo'yicha ilmiy maktablar yaratilgan. Bular hozirgi kunda fermer xo'jaliklarini boshqarish tizimini optimallashtirish bo'yicha izlanishlar olib bormoqdalar. Kafedralarda aspirantura mavjud.

**Qishloq xo'jaligini mexanizasiyalash va mahsulotlarni qayta ishlash texnologiyasi fakulteti** 1980 yilda tashkil topgan. Bu davr mobaynida qishloq xo'jaligini mexanizasiyalash, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash mutaxassisliklari bo'yicha 4 mingta mutaxassislar tayyorlandi.

Hozirgi kunda fakultetning 4 ta kafedrasida 2 yo'nalishda bakalavrlar va shu mutaxassisliklar bo'yicha magistrantlar tayyorlanmoqda. Dehqonchilikni mexanizasiyalash fakultetida aspirantura ochilgan. Fakultet qoshida o'quv sinov poligoni tashkil etilgan. "Traktorchi- mashinistlar" tayyorlov markazi va avtoshkola mavjud.

Hozirgi kunda fakultet kafedralarida ximik texnolog va muxandis mexaniklar


maktabi mavjud.

So'nggi yillardagi izlanishlar muxandislik ta'minotni takomillashtirish, fermerlarga servis xizmati ko'rsatish va kichik korxonalar tashkil qilish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha va boshqalarga qaratilgan.


Institutda xalqaro andozalarga javob beradigan mutaxassislar tayyorlash va ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish uchun kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlashga katta etibor berilayapti. Shu maqsadda Rossiya, Xitoy, AQSh, Germaniya, Isroil, Yaponiya, Bolgariya, Malayziya, Gollandiya, Fransiya, Misr, Hindiston mamlakatlari institutlari va Universitetlari bilan aloqalar o'rnatilib shartnomalar tuzilgan. Bir necha xalqaro loyihalar bo'yicha ishlar bajarilmoqda. Bu aloqalarga asosan yosh mutaxassislar, magistrlar, aspirantlar va olimlar amaliyot o'taydilar, malaka oshiradilar va izlanishlarning bir qismini o'sha institutlar laboratoriyalarida o'tkazadilar.

Institutda obodonlashtirilgan talabalar uyi, oshxonalar, maishiy-xizmat ko'rsatish, sport zali, stadion, umuman talabalarning shug'ullanishlari va dam olishlari uchun barcha sharoitlar mavjud. Institut sog'lomlashtirish lageri ham talabalar xizmatida.

**КАМАРҚАҢД ҚИШЛОҚ ХҲҖАЛЫК ИНСТИТУТИНИН ТАШКІЛІЙ ТУЗІЛМАСИ**



САМАРҚАНД ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК ИНСТИТУТИНИНГ ФАКУЛЬТЕТЛАРИ ВА ВАКАЛЕДРАЛАРИ ТАРКИБИ





### **3. SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI TALABASINING MA'NAVIY QIYOFA SI**

**Talaba:** - uzoq asrlar davomida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy va bebaho ma'naviy-madaniy merosimizni qayta tiklash, zamonaviy bilimlarni va umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan vazifa yekanligini yaxshi bilishi;

- ma'naviyat deganda har bir kishining o'z xalqi, Vatani tarixini yaxshi bilishi, o'zga xalqlar va mamlakatlar madaniy qadriyatlaridan xabardor bo'lishi, ularning orasida milliy madaniy merosimizning o'z o'rnini to'g'ri baholay olishi, shuningdek zamonaviy bilimlarni yegallash orqali har tomonlama yetuk, boy dunyoqarashga yega bo'lishi, imkon darajasida Ona Vatanimizning jahon sivilizasiyasi tomon yuz tutishini tezlashtirish ishiga hissa qo'sha olish malakalari majmuasi tushunilishini to'liq anglay olishi;

- mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining ma'naviy omillarini, jumladan tarixiy taraqqiyotimiz jarayonida yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarni o'rganish, ularni avaylab-asrash va yanada boyitish, mustaqillik uchun kurashgan vatandoshlarimizning hayot faoliyati va g'oyalarini chuqur bilish, mutafakkirlarimiz va fan arboblari yozgan asarlari, ta'limotlarini chuqur yegallash, ona tilimiz, uning tarixi va ijtimoiy taraqqiyotimiz uchun ahamiyatini anglab yetish, boshqa xalqlar madaniyati rivoji bilan bog'liq bo'lgan masalalariga o'z munosabatlarini bildira olish, jahon fani va madaniyati yerishayotgan barcha yutuqlarni yegallash uchun intilish;

- milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida "Men O'zbekiston farzandiman" degan faxr bilan imon ye'tiqodli va milliy g'ururli bo'lishi;

-Vatan va millat olidagi fuqarolik va farzandlik burchini bajarishda "Yelim deb, yurtim deb yonib yashash", kerak bo'lsa jonini fido qilishga tayyor bo'lishi;

- o'z kasbini chuqur yegallashda mas'uliyatli bo'lishi, oilaparvar, ota-ona, mahalla-kuy, yel-yurt oldidagi burchini to'g'ri anglay olishi va h.k.

### **4. INSTITUTDA O'QISH VAQTI VA GURUH SARDORINING VAZIFALARI**

O'quv mashg'ulotlari institutda belgilangan tartibda tasdiqlangan o'quv rejalari va dasturlariga asosan tuzilgan o'quv-reyting jadvali bo'yicha olib boriladi.

O'quv reyting jadvali dars boshlanishidan kamida 10 kun oldin ko'rinarli joyga osib qo'yiladi.

Har bir juftlik soatlari 80 minutni tashkil qiladi. O'quv mashg'ulotlari boshlanganini professor-o'qituvchi va talabalar qo'ng'iroq chalish bilan ogohlantiriladilar: Mashg'ulotlar tugagan vaqtida bir marta qo'ng'iroq chalinadi. Birinchi juftlik soati tugaganidan so'ng 10 minut tanaffus qilinadi. Ikkinchi juftlik tugagandan so'ng yesa 40 minutlik ovqatlanib olish uchun tanaffus ye'lon qilinadi va h.o.

Ikkinchi qo'ng'iroqdan keyin talabalar auditoriyaga kirishga ruxsat

berilmaydi.

Dars boshlangandan keyin barcha o'quv xonalarida tinchlik va tartib ta'minlanishi kerak. O'quv mashg'ulotlarini bo'lish, dars paytida auditoriyaga kirish va chiqib ketishga yo'l qo'yilmaydi.

Har bir o'quv mashg'uloti boshlangunga qadar (mashg'ulotlar orasidagi tanaffus paytida) auditoriya, laboratoriya, o'quv ustaxonalari va kabinetlarni laborantlar zarur o'quv ko'llanmalar va uskunalar bilan darsga tayyorlaydi.

Auditoriya, laboratoriya, o'quv ustaxonalarida amaliy mashg'ulotlar o'tish uchun har bir kurs ikki guruhga bo'linadi. Talabalar guruhining tarkibi buyruq asosida belgilanadi.

Kundalik o'quv jarayoni quyidagi jadval asosida tashkil qilinadi

T.n	Juftlik soatlari	Darsga kirish	Darsdan chiqish	Tanaffus
1	I	9 <sup>00</sup>	10 <sup>20</sup>	10 min
2	II	10 <sup>30</sup>	11 <sup>50</sup>	40 min
3	III	12 <sup>30</sup>	13 <sup>50</sup>	10 min
4	IV	14 <sup>00</sup>	15 <sup>20</sup>	10 min

Har bir o'quv mashg'ulotining boshlanishidan avval auditoriyalar, o'quv kabinetlari, kompyuter sinflari, zarur o'quv ko'llanmalar va h.k.lar o'quv mashg'ulotlariga tayyorlab qo'yiladi. Ma'ruza darslari oqimlar bo'yicha, amaliy mashg'ulotlar yesa maxsus guruhlar bo'yicha o'tkaziladi. Har bir guruxda talabalarining takliflariga hamda fakultet dekani va guruh murabbiysini roziligi bilan yeng yaxshi o'qiydigan va intizomli talabalardan bir kishi institut rektorining buyrug'i bilan "Sardor" qilib tayinlanadi. Sardor bevosita fakultet dekaniga bo'ysinadi va o'z guruhida dekan va murabbiyning butun ko'rsatmalari hamda buyruqlarini amalga oshiradi. Sardorniig yuqorida aytilgan doiradagi barcha aytganlarini guruh talabalarining hammasi bajarishi shart.

Guruh sardorining vazifasiga quyidagilar kiradi:

a) o'quv mashg'ulotlarining hamma turlari bo'yicha talabalarni shaxsan xisobga olish;

b) har uni fakultet dekaniga darsga kelmagan va kechikkan talabalar to'g'risida, ularning sabablarini ko'rsatgan holda ma'lumotnoma berish;

v) ma'ruza va amaliy mashg'ulot darslarida guruxda o'quv fanning borishini kuzatish, shuningdek, o'quv ustaxonalari va jihozlarning saqlanishi haqida javobgarlik;

g) guruh talabalarini o'rtasida darslik, o'quv ko'llanmalarini o'z vaqtida olish va tarqatishni tashkil yetish;

d) fakultet dekani tomonidan mashg'ulotlar jadvaliga kiritilgan o'zgarishlarni talabalarga yetkazish;

ye) har kuni tartib bo'yicha guruh navbatchiligini belgilash;

j) guruh talbalarining stipendiyalarini o'z vaqtida olinishini nazorat qilish;

Har bir guruxda belgilangan shaklda jurnal tutiladi. Bu jurnal fakultet dekanatlarida saqlanadi va har kuni mashg'ulotlar boshlanishidan oldin Sardorga beriladi. Sardor unga mashg'ulotga kelgan va kelmagan talabalarni belgilab chiqadi.

Talabalar tomonidan qoldirilgan darslar belgilangan tartibda darsni o'zlashtirish (otrabotka qilish) lozimdir.

## **5. TALABALARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

Istitutga o'rta (to'liq), umumiy, hunar-texnik, kollejar va professional (akademik liseylar va kasb-hunar kollejlari) bilim yurtlarini bitirgan shaxslar arizalari bo'yicha test sinovlari natijalariga ko'ra O'zbekiston Respublikasining Oliy o'quv yurtlariga talabalarni qabul qilish tartibi va qoidalari to'g'risidagi Nizomga muvofiq Davlat grantlari hamda to'lov kontrak asosida o'qishga qabul qilinadi.

Test natijalari asosida institut rektorining buyrug'i bilan talabalar safiga qabul qilinadi.

### **Talabalarning huquqlari**

-Fan, texnika va madaniyat, zamonaviy taraqqiyot darajasiga muvofiq keluvchi bilimlarni olish;

-institutning muhim masalalarini muhokama yetish va hal qilishda, qatnashish shu jumladan, jamoatchilik tashkilotlari hamda o'quv yurtini boshqarish bo'g'inlarining barcha xizmatlaridan bepul foydalanish;

- ilmiy tadqiqot ishlarini barcha turlari, konferensiyalar, simpoziumlarda ishtirok yetish, o'z ilmiy ishlarini nashrga taqdim yetish, shu jumladan institut nashrlarida ham;

- institut ma'muriyatining bo'yruq va farmoyishlari yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda shikoyat qilish;

-O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid kelmaydigan boshqa huquqlardan foydalanish.

### **Talabalarning majburiyatlari**

-institut Ustaviga va ichki-tarib qoidalariga qat'iy rioya qilish;

-Vatanga sadoqat, tanlagan mutaxassisligini mukammal yegallash;

-o'quv amaliyotlari, obodonlashtirish ishlarida to'liq va faol ishtirok yetish;

-diniy yekstremistik va shovinistik oqimlarga qo'shilmaslik;

-Respublikada amalga oshirilayotgan islohotlardan xabardor bo'lish;

-o'quv jarayoniga o'z vaqtida qatnashish, darsga kech kelmaslik,

-sababsiz dars qoldirmaslik;

-darsga tegishli o'quv qurollari bilan kelish;

-tanlagan mutaxassisliklari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni doimiy ravishda chuqur va puxta yegallash:

-o'zining ilmiy, siyosiy-g'oyaviy tafakkurini oshirib borish;

-xorijiy grantlarda qatnashgan holda ma'muriyat, fakultet rahbariyatini xabardor qilish;

-o'quv rejasi va dasturda ko'zda tutilgan barcha topshiriqlarni



- belgilangan muddatda bajarish;
- dars vaqtida uyali aloqa vositalaridan foydalanmaslik;
- institut, fakultet hamda jamoat tashkilotlari tomonidan o'tkaziladigan tadbirlarda faol qatnashish;
- kasalligi tufayli darsga qatnashmagan holda, 3 kun ichida (bevosita yoki guruh rahbari - sardori orqali fakultet dekanatini ogohlantirish va dars qoldirishi sababini asoslovchi hujjat darsga kelgan kunda takdim yetish;
- fakultetlarda, umumiy foydalanish joylarida tartib, tozalik, sanitariya qoidalariga rioya qilish;
- o'quv xonalarida namunali tozalikni ta'minlash;
- spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari, giyohvand moddalarni iste'mol qilmaslik;
- institutda faoliyat ko'rsatuvchi barcha professor-o'qituvchilar hamda xizmatchilarga nisbatan hurmatda bo'lish;
- ta'lim muassasasi mulkiga (parta, stol, stul, yeshik va devorlarga, o'quv jihozlariga va h.k.) ziyon yetkazmaslik;
  - institut ma'muriyati ruxsatisiz laboratoriya asbob-uskunalari va boshqa jihozlarni binodan tashqariga olib chiqmaslik;
  - fakultet binolari va talabalar turar joylarida belgilangan jadval asosida navbatchilik qilish;
  - talabalar turar joylarida «Oliy ta'lim muassasalarining talabalar uyi faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlar turkumi» asosida ta'lim oluvchilar o'z xuquk va majburiyatlarini amalga oshirishi lozim;
  - 12 soatdan ortik sababsiz dars qoldirgan talabalarga xayfsan ye'lon kilinadi va guruxda muxokama qilinadi;
  - 18 soatdan ortiq sababsiz dars koldirgan talabalarga qat'iy hayfsan ye'lon kilinadi hamda ularning ota-onalari xat orqali chaqirtirilib, ulardan farzandlari xulq-atvoriga izoh berish talab yetiladi;
- 30 soatdan ortiq sababsiz dars qoldirgan talabalarga nisbatan keskin choralar ko'riladi va talabalar safidan chetlashtiriladi;
 

Amaldagi ichki-tartib qoidalarga rioya qilmagan hamda boshqa me'yoriy hujjatlarda qayd qilingan tartiblarga amal qilmagan hollarda talabalar belgilangan tartibda institut talabalari safidan chetlashtiriladi.

## **6. OLIY MAKTABDA O'QISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA MAS'ULIYATI.**

Kechagina umumiy o'rta maktabda o'qirdingiz, bugun oliy maktab Samarqand qishloq xo'jalik institutining talabasi bo'ldingiz. Institutda boshqa yo'nalishlar bilan bir qatorda "Buxgalteriya hisobi va audit" yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli, yuqori malakali, raqobatga qodir mutaxassislar tayyorlanadi. Bu osonlikcha ko'chmaydi, albatta.

Avvalo, Oliy maktabda o'qishniig umumta'lim maktablaridagi o'qishdan jiddiy farqini anglab, tushunib yetmoq zarur. Yuqori malakali buxgalter kasbini yegallash yo'lidagi o'qish o'rta maktabdagi o'qishdai ancha qiyin va murakkab

bo'lib talabadan ko'p vaqt, katta ijodiy mehnat qilishni talab qiladi.

Oliy maktabda o'qishning o'rta maktabdagi o'qishdan farqi quyidagilardan iborat:

Birinchiidan, talaba o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim hajmi katta. Yendi bitta darslikni o'qib o'zlashtirishning o'zi yetarli yemas. O'rganilayotgan har bir mavzu bo'yicha bir necha kitoblarni darslik, o'quv qo'llanmalarni, birinchi manbalarni, statistik ma'lumotlarni, Prezident asarlari, ma'ruza, nutqlari va farmonlarini, Oliy Majlisda qabul qilingan qonunlarni, Vazirlar Mahkamasining qarorlarini, ilmiy-tahliliy asar va risolalar va boshqa hujjatlarni o'rganish, ularni taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, xulosalar chiqarish talab qilinadi.

Ikkinchiidan, Oliy maktab talabasi balog'atga yetgan, yetuk, mustaqil hayotga kirgan inson. Oliy o'quv yurtidagi ta'lim jarayoni, o'qitish shakllari va metodlari o'zi tanlagan mutaxassislikni yegallashga ongli ravishda intilayotgan yetuk yigit-qizlarga moslashtirilgan. Agar o'rta maktabda o'quvchilarning berilgan vazifani bajarishi, o'zlashtirishi har kuni nazorat qilinib, baholanib borilsa, Oliy maktabda yesa talabaning bilimi har kuni yemas, reyting asosida, belgilangai muddatlarda, nazorat qilinadi. Bunda Oliy maktabda o'qituvchi so'ramaydi, deb vaqtni bekorga o'tkazmaslik kerak. Talaba o'quv materiallarini o'z vaqtida o'zi uchun mustaqil o'rganib borishi zarur, aks xolda keyin o'tiladigan yangi mavzularni to'liq tushunolmay qoladi. Talaba o'zini o'zi nazorat qilishi zarur.

Uchinchiidan, umum ta'lim maktabda o'qigan paytingizda o'quv jarayoni qanday tashkil etilganini, o'quv rejasi, o'quv dasturlari nimaligini tushunolmas yedingiz. Oliy o'quv yurti talabasi yesa o'quv jarayonining qanday tashkil etilganini, o'quv rejasini yaxshi bilishi lozim. O'rganilayotgan har bir fan bo'yicha o'quv dasturiga yega bo'lishi, uning mazmuni va talablarini tushunib yetishi zarur.

To'rtinchiidan, oliy ta'lim o'zining yuqori ilmiy saviyasi bilan o'rta ta'limdan farq qiladi. Oliy maktabda har bir fanni o'qitish fan va ishlab chiqarishning zamonaviy yutuqlariga asoslanadi, o'rganilayotgan fanning hozirgi ahvoli, uni o'rganish metodologiyasi, dolzarb muammolari o'rgatiladi. Talabaning o'zi ham institutda olib boriladigan o'quv-tadqiqot va ilmiy-tadqiqot ishlarida bevosita qatnashishi zarur, iqtisodiy bilimlar klubi faoliyatida, ilmiy-amaliy konferensiyalarda, fanlarni ilmiy to'garaklarida, olimpiada va konkurslarda faol ishtirok yetishi kerak.

Beshinchiidan, umumta'lim maktablarida o'quv mashg'ulotlarining asosiy turi dars bo'lsa, institutda o'quv mashg'ulotlarini bir necha shakllaridan foydalaniladi:

- a) Ma'ruzalar;
- b) Seminar mashg'ulotlari;
- v) Amaliy mashg'ulotlar;
- g) Laboratoriya mashg'ulotlari;
- d) Davra suhbatlari va konferensiyalar;
- ye) Konsultasiyalar;
- j) Ishlab chiqarish amaliyoti;

- z) Kurs ishlari;
- i) Bitiruv malakaviy ishlari;
- k) Referat ishlari va boshqalar.

Bu o'quv mashg'ulotlarini har biri talabadan o'ziga xos metodik yondashuvni, yuksak saviyada tayyorgarlikni, faollik va uyushqoqlikni talab qiladi.

Demak, oliy darajadagi buxgalter mutaxassisligini yegallash murakkab va mas'uliyatli jarayondir. Talaba birinchi kursdanoq oliy o'quv yurtida qanday o'qish kerakligini bilib olishi, ta'lim olishning o'ziga xos sharoitlariga tezroq moslashishi nihoyatda zarurdir.

## **7. MA'RUZANI TINGLASH VA YOZIB OLISH**

Oliy o'quv yurtida ma'ruza mashg'uloti o'quv jarayonining asosiy va yetakchi shaklidir. Shu boisdan institutda ma'ruzalar o'quv vaqtining taxminan 40 foizini tashkil yetadi.

Talabalar birinchi kursdanoq ma'ruzalarning mohiyati va ahamiyatini, ixtisosligi bo'yicha bilimlarni yegallash va o'zida mustaqil ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda ma'ruzalarning imkoniyatlarini tushunib olishlari zarur.

Bular nimalardan iborat?

Birinchi, domla ma'ruzalari bilan butun o'quv jarayonini, talabalar faoliyatini muayyan maqsadga yo'naltirib turadi. O'quv mashg'ulotlarini boshqa barcha shakllari - seminarlar, amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va boshqalar talabalarning ma'ruzalarni qanchalik to'g'ri, mukammal o'zlashtirib olganligiga bog'liq. Ma'ruza talabaning barcha ishlari ko'lamini belgilab beradi.

Ikkinchi, ma'ruzalar talabalarga o'quv rejasiga kirgan barcha fanlarni, ularning yeng muhim va murakkab mavzularini chuqur va har tomonlama o'rganib olishga imkoniyat beradi. Ma'ruza o'rganilayotgan masalani tahlil qilishga, dolzarb nazariy va amaliy muammolarni topa bilishga va ularni yechimlarini izlashga ko'maklashadi. Talaba ma'ruzalar orqali o'rganilayotgai fanlar o'rtasidagi o'zaro aloqa va bog'lanishni, u yoki bu fanning o'zini professional hamda ijtimoiy-siyosiy jihatdan tayyorlashdagi rolini tushunib boradi, fanga nisbatan talabaning qiziqishi ortadi.

Uchinchi, ma'ruzalar talabalarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini, ilmiy dunyoqarashni, bilim asoslarini. yegallashga ijodiy yondashuvni shakllantiradi. Talaba ma'ruzachi professor-o'qituvchilar yordamida to'g'ri fikr yuritishga, o'rganilayotgan fanning qoidalari, qonun va kategoriyalarini asoslab bershiga, ularning mohiyatini anglashga, ilm-fanning u yoki bu tarmog'i qanday rivojlanayotgani va hali hal yetilmagan muammolari haqida ilmiy tasavvur hosil qilishga o'rganadilar.

To'rtinchidan, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish, bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan demokratik islohatlar sharoitida ma'ruzalarning ahamiyati yanada ortmoqda. Darslik va o'quv qo'llanmalarida ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgai islohatlar, ularning natijalari o'z ifodasini topgan, albatta. Biroq, ularni har yili qaytadan tayyorlash va nashr yetib bo'lmaydi. Shu boisdan ham Sizning qo'lingizdagi kitoblarda mamlakatimizda

amalga oshirilayotgan ulkan ishlarning, islohatlarning so'nggi natijalari, yutuqlari va maummolari yoritilmagan bo'lishi mumkin. Bularni siz ma'ruzalar orqali bilib olasiz. Domlalar o'z ma'ruzarining mavzulari doirasida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyotidagi o'zgarishlarni, ilmiy-texnikaviy yangiliklarni, yo'l boshchimiz asarlarida ilgari surilayotgan nazariy-metodologik va amaliy masalalarni, Oliy Majlisda qabul qilinayotgan Qonunlar va hukumatning qarorlarini yoritib boradilar.

Beshinchidan, ma'ruza talaba mustaqil ishining asosiy yo'nalishlarini, mazmunini belgilab beradi. Talaba maruzaning ana shu jihatini yaxshi anglab olgandagina hech kimning aralashuvisiz o'z ustida mustaqil ishlaydi, turli fanlarni o'rganadi. Birinchi kurs talabasi o'qituvchining yordamisiz o'z mustaqil ishini to'g'ri tashkil yetolmaydi.

Har bir ma'ruza talabaga nimalarni bilib olishni, qanday adabiyotlar va birinchi manba'larni o'qish va konspekt olishni belgilab beradi. Bu talabaning muvaffaqiyatli o'qishining garovidir.

Oltinchidan, ma'ruzalarning tarbiyaviy ahamiyati katta. Talaba ma'ruza jarayonida ustozning mehnatiga hamnafas va bahramand bo'ladi. Ma'ruza o'qish oson yemas, u juda katta mehnatni, tinimsiz tayyorgarlikni talab qiladi, talaba buni sezadi, ta'sirlanadi, o'zida ham shunday ijodiy mehnat qilishga intilish hissi shakllanadi.

Ma'ruza jarayonida domla bilan talaba o'rtasida ijodiy bog'lanish, o'qituvchining materialni jonli, yoqimli ovoz va bilimdonlik bilan bayon qilishi, o'z mantiqi, pedagogik mahorati, harakatlari talabaning ma'naviy o'sishiga ijobiy ta'sir yetadi.

Tajriba ko'rsatadiki, hech qanday darslik, o'quv qo'llanma, o'quv-texnik vositalar va boshqalar ijodiy, pedagogik mahorat bilan o'qiladigan jonli ma'ruzalar o'rnini bosaolmaydi.

Biroq, yaxshi ma'ruza ishning yarmi xolos, uning ikkinchi yarmi talabaga bog'liq. Talaba ma'ruza tinglashga va uni yozib olishga tayyormi? Ma'ruzadan oldin, ma'ruza jarayonida, ma'ruzadan keyin nima qilish kerakligini biladimi?

Yendi ana shu masalalar to'g'risida fikr mulohazalarimizni bayon yetaylik. Avvalo shuni ta'kidlamochimizki, talaba barcha ma'ruzalarga qatnashishga majbur, bu uning talabalik burchi.

Ma'ruzalarni yo'nalish va maqsadiga ko'ra o'quv dasturi asosida o'qiladigan tizimli kurs ma'ruzalari, muammoli ma'ruzalar, maxsus kurs ma'ruzalari va Davlat attestasiyalari oldidan o'tiladigan umumlashtirilgan ma'lumotlar beruvchi ma'ruzalarga ajratish mumkin. Talaba barcha turdagi ma'ruzalarga qatnashishi shart.

Talaba ma'ruza materiallarini o'zlashtirib olishi uchun oldindan unga tayyorgarlik ko'rishi lozim. Ma'ruzaga tayyorgarlik ko'rish deganda qanday ishlarni tushunamiz? O'rganilayotgan fan bo'yicha o'quv dasturi, darslik va o'quv qo'llanmalariga yega bo'lishi shart. Ular orqali navbatdagi ma'ruza qaysi mavzuda bo'lishini aniqlash lozim. Mavzu aniqlangach, darslik yoki o'quv qo'llanmadan mazkur mavzuga doir materiallarni o'rganishi, qanday masalalar yoritilgani to'g'risida tushunchaga yega bo'lishi zarur. Ana shunday tayyorgarlik

ma'ruza materiallarini to'laroq o'zlashtirib olish imkoniyatini beradi.

Ko'pgina talabalar avval ma'ruzani tinglab, keyin o'qiydilar, bu holat o'zlashtirish samaradorligi darajasini pasaytiradi.

Masalan, "Xorijiy investisiyalarning mohiyati" mavzusidagi ma'ruzadan oldin talaba unga tayyorgarlik ko'rsa, o'quv dasturidan ushbu mavzuni topib nimalarni bilish zarurligini aniqlab olib, "Xorijiy investisiyalar" o'quv qo'llanmaning ushbu mavzusi bilan tanishgan bo'lsa o'quvchi ma'ruzasini ijodiy ravishda tinglaydi.

Tajribadan ma'lumki, tinglovchi ma'lum bir mavzu bo'yicha ma'lum darajada bilimga, tasavvurga yega bo'lsa, o'sha mavzuda o'qiladigan ma'ruza materiallarini tez, yengil va chuqur o'zlashtiraoladi.

Ma'ruzaga oldindan tayyorgarlik ko'rishning ahamiyati yana shundaki, talaba ma'ruza jarayonida o'qituvchi nimalar xaqida gapirishi mumkinligi xaqida oldindan fikrlay oladi, ma'ruzachi bilan ichki aloqada bo'lib turadi, uning ma'ruzaga qiziqishi ortadi, diqqati va aqliy faoliyati kuchayadi.

Ma'ruzaga oldindan tayyorgarlik ko'rish yehimol 1-1,5 soat vaqtni talab qilar, lekin puxta bilim olish, o'zlashtirgan bilimni xotirada mustahkam saqlashda uning ahamiyati katta. Yana shuni yodda tutish lozimki, darslikni bir-ikki, lozim bo'lsa yana bir marta o'qish mumkin, ammo ma'ruza bir marta bo'ladi, unda tushuntirilgan ilmiy, nazariy, amaliy masalalar yana qaytadan tushuntirilmaydi.

Yana bir muhim masala ma'ruzani tinglash, o'qib olish, idrok yeta olish, masalasidir. Bu ham jiddiy jarayon. Ayrim talabalar tinglab o'tirganday holatda turadiyu, hych narsani yeshitmaydi. "O'zim har joydaman, ko'nglim sendadur", degan ibora bekorga aytilmagan. Insonning o'yi, fikrlashi nutq orqali ifoda yetiladigan tushunchadan bir necha baravar oldinga chopib ketadi. Shunaqasi ham bo'ladi, nutqning so'zlari orasida o'tgan qisqa bir vaqtda tinglovchining fikri beixtiyor qochishi, mutlaqo boshqa masalalarda fikrlab qolishi mumkin, fikr yana ma'ruzaga qaytib o'qituvchining so'zlarini yeshita boshlaydi. Natijada tinglovchi xotirasida bir necha so'zlargina qoladi, ammo aytilgan fikrning mazmunini idrok qilolmay qoladi. Bu yerda gap ixtiyoriy, ongli idrok yetish ustida bormoqda. Ixtiyoriy, ongli idrok yetish oldindan belgilab olingan bir maqsad bo'yicha va butun kuch hamda irodani sarflagan holda ro'yobga chiqadi.

Talaba shuni yaxshi yesda saqlashi lozimki, oliy maktab bilishning uyushgan, idrok yetishning ongli, ixtiyoriy jarayonlarini amalga oshirishni talab qiladi. Ongli idrok yetish talabaning mehnati, irodasi, g'ayrat-shijoati yevaziga hosil bo'ladi. Xo'sh buning uchun nimalar qilish kerak?

Avvalo talaba o'zini ma'ruza tinglashga tayyorlashi, ya'ni o'z imkoniyat va xususiyatlarini hisobga olgan holda (yeshitish qobiliyati, ko'rish va hokazolarga qarab) o'quv xonasidan o'rin olishi, ma'ruza tinglashga o'zini safarbar yetishi, ish kayfiyatini vujudga keltirishi lozim.

Idrok yetishning asosiy sharti ma'ruzaga qaratilgan diqqat -ye'tibordir. Talaba ma'ruza materiallarini yeshitish va o'zlashtirib olish uchun o'zini ma'ruzani tinglashga batamom safarbar yeta olishi kerak. Ma'ruzaga aloqasi bo'lmagan biron narsa domlaning gaplari, tushuntirishlari, mulohazalarini



yeshitishga xalaqit bermayotganini, biron fikr uni chalg'itmayotganini his qilib o'tirish katta ahamiyatga yega. Diqqat - ye'tibor insonning irodasiga bog'liq. Talaba o'z irodasini ishga solib, diqqat - ye'tibori bilan ma'ruzani tinglab o'tiradigan bo'lsa, faqat ma'ruzada aytilayotgan tushunchalar, bilimlar xaqida o'ylab, ularga quloq solib o'tirsa ma'ruza materiallari uning ongiga to'la-to'kis singib boradi.

Ma'ruza tinglayotgan talabaning diqqat-ye'tibori tor, bir nuqtaga qadalgan yoki yoyiq tarqoq bo'lishi ham mumkin. Masalan, maruzaga quloq solib, yozmay o'tirgan talabaning ye'tibori tor, bir nuqtaga qaratilgan bo'ladi. Ma'ruzani yozib bormaslik talaba imkoniyatini cheklab qo'yadi, bir muncha vaqt o'tgach, yeshitganlarini xotirlay olmaydi, pirovirdida talabaning bilimi sayoz bo'lib qoladi. Psixologlarning tadqiqotlari ko'rsatadiki, 3-4 soat o'tgach xotirada ma'ruza asosiy mazmunining 45 foizi, bir xaftadan keyin 30 foizi qolarkan va hokazo pasayib borishi kuzatilgan.

Talaba ma'ruzani tinglash bilan birga yozib borishni ham bilishi lozim. Ma'ruzani to'laroq yozib olish, konspektlashtirish puxta, mukammal bilim olishda talabaga katta ko'makchidir. Ma'ruzani yozib borish talabaning ko'rish va yeshitish sezgilaridan tashqari xotirlab qolish qobiliyatini ham rivojlantiradi va mustahkamlaydi.

Ma'ruzani to'g'ri konspektlashtirish katta san'atdir, u katta aqliy mehnatni talab qiladi. Domla nima desa hych ye'tibor bermay hammasini birma-bir yozib borish ham unacha yaxshi natija bermaydi. Aslida ma'ruzani so'zma-so'z yozib borishning iloji ham bo'lmaydi orada ko'p so'zlar qolib ketaveradi va pirovardida konspekt tushunarli bo'lmay qoladi.

Ma'ruzachi tomonidan aytilayotganlarning mag'zini chaqib, tushunib olib, undan keyin keraklisini qisqaroq qilib yozib olish zarur. Yeshitish, tushunish va yozma detal tartibga rioya yetish lozim. Yozish paytida ye'tiborni faqat yozishgagina yemas, ayni paytda quloq solish, yeshitishni, aytilayotgai tushuncha, fikr mulohazalarni ham o'zlashtirib borishga harakat qilish lozim. Demak, talabaning diqqat-ye'tibori yoyiq, keng doirali bo'lishi zarur. Bu birdaniga bo'lmaydi, albatta. Ma'ruza paytida talabaning yoyiq, keng doiradi ye'tibori mashq natijasida shakllanadi. Talaba o'zida bunday ye'tiborni tarbiyalashi kerak. Ham tinglab, ham yozib borish jarayonida ye'tibor kuchayadi, uyushqoqlik oshadi. Talaba asta-sekin o'zida ham butun kuch-g'ayratini bir paytning o'zida ham yeshitishga, ham yozishga sarflashga o'rganadi. Bugina yemas talaba nimalarni yozib borayotganligini biladi va xotirasida qola boradi. Talaba materialni qanchalik tushunayotgani va yesda saqlab qolayotganini nazorat qilib turish ko'nikmalariga ham yega bo'lib boradi.

Ma'ruzani shu tariqa tinglash va yozish jarayonida talaba intellektual faol holatda bo'ladi, bu o'z navbatida talaba ish qobiliyatini kuchaytiradi va kun davomida saqlaydi. Talaba ma'ruzada hamisha diqqat bilan o'tirishga o'rganadi, o'ylaydigan, intellektual faol bo'ladi.

Har bir fan bo'yicha ma'ruzani alohida umumiy daftarga siyohli yoki sharikli ruchkada, chiroyli va tushunarli qilib yozish lozim. Yozish paytida ma'ruzada aytilayotgan muhim tushunchalar, qoidalar, dalillar, metodologik

xarakterdagi fikrlarni yozishga ulgurish lozim. So'zlarni qisqartib yozishga o'rganing. Masalan, O'zbekiston Respublika degan so'zlarni- O'zR, bozor munosabatlarini - boz.mun-ri va hokazo.

Ma'ruza mavzusi va rejasini, mavzu bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlarni to'la yozib olish muhim ahamiyatga yega. Ma'ruza jarayonida bir masaladan ikkinchi masalaga o'tish paytini anglash lozim.

Ma'ruzachi biron bir asardan, birinchi manbadan sitata o'qib bersa, uni to'la yozishga ulgurib bo'lmaydi. Shuning uchun sitatani qisqacha mazmunini yozib, kitobning yoki manbaning nomini va betini yozib olish kerak. Keyinchalik uni topib sitatani to'la yozib olish mumkin bo'ladi.

Tez yozish malakasini ham o'rganish zarur. Talaba minutiga 15-20 so'z yoza olsa yaxshi natijaga yerishadi.

Har bir mavzuni yangi betdan boshlash lozim. Yozish paytida daftar saxifasidan kattaroq ochiq joy qoldirish zarur.

Boshqa bir talabaning konspektidan foydalanishga urinish foyda bermaydi. Tajriba birovning konspektidan o'qib bilish uchun sarflanadigan vaqt samarasiz yekanligini, ijobiy natija bermasligini ko'rsatadi.

Talaba ma'ruzani yeshitdi va konspektlashtirdi. Bu bilan ish xali tomom bo'lmaydi. Shu kuni uyga, talabalar turar joyiga kelgandan keyin ma'ruzada yozib olgan konspektni o'qib chiqish, qayta ishlashi va to'ldirishi lozim. O'qiyotganda muhim so'zlarning tagiga chizib qo'yish, so'zlar tushib qolgan bo'lsa qo'shimcha qilib yozib qo'yish, ortiqcha yoki takror yozilgan so'zlar yoki jumlar bo'lsa o'chirib tashlash kerak. Shu tariqa konspekt tartibga solinadi.

Shundan keyin darslik yoki o'quv qo'llanmasidan ma'ruza mavzusini topib o'qish va konspekt bilan solishtirish lozim. Bu jarayonda talaba kitobdan konspektida yozilgan qoidalar, tushunchalar, statistik ma'lumotlarga duch keladi. Ularni o'qib mohiyatiga tushungach, ularni daftarning tegishli ochiq joylariga qisqa qilib o'z so'zlari bilan yozib qo'yish zarur. Ilg'or talabalar gazetalar, konsultasiyalar va muloqat darslarida mazkur mavzu bo'yicha olgan bilimlarini ham konspektlarining tegishli joylariga yozib boradilar.

Shunday tarzda yozilgan konspekt muvoffaqiyatli o'qishning garovidir. U nafaqat talabalik yillarida, shuningdek keyinchalik mehnat qilish paytida ham asqotadi. Bu talabaning o'zi yaratgan muhim va zarur bilimlar jamlangan qo'llanmadir.

## **8. SEMINAR MASHG'ULOTLARIGA TAYYORLANISH**

"Seminar" so'zi lotincha so'z bo'lib "bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish" degan ma'noni anglatadi.

Oliy o'quv yurtida seminar o'quv-nazariy mashg'ulotlarning muhim shakli bo'lib, talabalarga o'quv rejasida nazarda tutilgan predmetlarni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi.

Seminar mashg'ulotining ahamiyati shundaki, u talabalarda kitob ustida mustaqil ishlash, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantiradi va rivojlantiradi. Prezident Islom Karimov Oliy Majlisning to'qqizinchi sessiyasida so'zlagan nutqida: "demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson yerkin

fikrlaydigan yetib tarbiyalanadi. Agar bolalar yerkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir".<sup>1</sup> Yaxshi uyushtirilgai seminar - talabalar uchun mustaqil fikrlashni o'rgatadigan maktabdir.

Seminar mavzusi, uning rejasi va o'rganish zarur bo'lgan adabiyotlar ro'yxati kafedralar tomonidan o'quv yili boshlanmasdanoq tuzilgan bo'ladi va bu ma'lumotlar seminar o'tkazuvchi o'qituvchi tomonidan talabalarga o'z vaqtida yetkaziladi. Seminar o'tiladigan kuni, vaqti va joyi dars jadvalida ko'rsatilgan bo'ladi.

Institutimizning birinchi kursida O'zbekiston tarixi, Iqtisodiy nazariya, Siyosashunoslik va h.k. fanlar yuzasidan seminar mashg'ulotlari o'tkaziladi.

Seminar mashg'uloti ikki xil usulda tashkil yetilishi mumkin. Birinchisi, seminar mavzusida belgilangan muhim masalalar bo'yicha qizg'in ijodiy baxslashuvlar bo'ladi. Ikkinchisi, talabalar tomonidan tayyorlangan mavzuga doir o'quv-ilmiy yoki ilmiy ma'ruzalar tinglanadi va uni talabalar bilan muhokama qilinadi. Har ikkala holda ham seminar talabalar o'rtasida fikr almashuv, muhokama va bahslashuv shaklida o'tadi.

Seminar mashg'ulotlariga qanday tayyorlanish kerak?

Seminarga tayyorlanish talabaning mustaqil ishiga asoslanadi. Mustaqil individual aqliy mehnat o'qishning yeng samarali shaklidir. Seminar mavzusi bo'yicha, odatda, oldin ma'ruza o'qiladi. Demak, seminarga tayyorgarlik ko'rish ma'ruzani yeshitish va yozib olishdan boshlanadi. Ma'ruzada berilayotgan materialni yaxshi o'zlashtirish, ijodiy idrok yetish, konspektlashtirish va uni qayta ishlash, to'ldirish seminar mashg'ulotlariga puxta tayyorgarlik ko'rishning zarur shartidir.

Seminarga tayyorlanishning yana bir sharti shuki, kafedralarda ishlab chiqilgan. Masalan, "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasidan tayyorlangan "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" fan o'quv dasturi, Buxgalteriya hisobi nazariyasi seminar mashg'ulotlari rejasi, hamda Buxgalteriya hisobi nazariyasi fanidan seminar mashg'ulotlari bo'yicha metodik maslahatlar kabi o'quv qo'llanmalarini institut axborot resurs markazidan olish va ularga amal qilish lozim.

Seminarga tayyorlanishning asosiy sharti tavsiya etilgan manbalar va kitoblarni o'qib o'rganish va konspektlashtirishdir. Bu yesa ma'lum vaqt va qunt talab qiladigan juda murakkab faoliyatdir. Bu ishni bir o'tirishda yoki seminar mashg'ulotidan bir kun oldin bajarib bo'lmaydi.

Bundan shunday xulosaga qilish mumkinki talaba hafta davomida ma'lum reja asosida muntazam sur'atda shug'ullanib borgan taqdirdagina seminar mashg'ulotlariga puxta va o'z vaqtida tayyor bo'lishi mumkin.

Seminarga tayyorlanish birinchi manbalar, kitob ustida ishlash jarayonidir. Avvalo, kitob bilan umumiy tarzda tanishib chiqib, uning muallifi, nomi, hajmi, qachon va qayerda nashr etilganiga ye'tibor berish lozim. Kitobning ilmiy apparati, ya'ni manbalarga qilingan ilovalar, yeslatmalar va boshqalari bilan

---

<sup>1</sup> Каримов И. Баркамол авлод - Ўзбекистон таракқиётининг пойдевори. Халқ сўзи, 1997 йил 30 август сони.



ham tanishib chiqish zarur.

Tavsiya ztilgan har bir manba va kitobni boshidai oxirigacha birma-bir qunt bilan o'qib o'rganish lozim. Agar kitob katta, bir necha qism va boblardan iborat bo'lsa, uni ayrim-ayrim qism va boblar bo'yicha navbatma-navbat yoki seminar rejasida ko'rsatilgan betlarini ko'rish lozim bo'ladi. Shoshilmasdan, butun hayolni jamlab, qo'lga qalam olgan xolda, o'qilganini tahlil qilib, yangi fikr-mulohazalarni oldingilari bilan o'zaro bog'lagan, ilgari surilayotgai asosiy g'oyalar va tushunchalarni ajrata biladigan tarzda o'qish lozim. Agar kitob shaxsan o'zingizniki bo'lsa, o'qilayotganda muhim joylarini tagiga chizib, chetiga o'z fikr mulohazalaringizni yoki o'qilganda mustaqil bayon yetib berish uchun so'zlash rejangizni yozib qo'yishingiz mumkin.

Manba yoki kitobni o'qib chiqqach, uning ustida puxta o'ylab ko'rish lozim, bu materialni yana to'laroq tushunish va o'zlashtirib olishga yordam beradi. O'ylash davomida talabada bir qancha savollar paydo bo'lishi mumkin. Masalan, o'qilgan kitobda qanday asosiy g'oya va muhim tushunchalar ilgari surilayapti, ular seminar mavzusiga qanchalik aloqador, ilgari o'rganilganlarga nechog'lik bog'liq, seminarning qaysi savoli haqida gap borayapti? Ana shunday savollarga javob toparkan talabada shaxsiy fikr-mulohazadar tug'iladi. Kitob ustida ishlash mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, degan iboraniig ma'nosi shundadir.

Birinchi manba, tavsiya etilgan kitoblarni yuqorida aytilgan tarzda o'qib chiqqandan keyin kitob ustida ishlashning so'nggi bosqichiga - o'qilganni daftarga yozib olishga o'tiladi.

Seminar mashg'ulotlari uchun alohida umumiy daftar tutiladi. Bu daftarga yozishniig asosiy shakli konspekt olish bo'lib, o'rganilayotgan materialning asosiy mazmuni qisqacha bayon qilinadi.

Birinchi manba va kitobdan kopspekt yozish ko'p vaqt va aqliy kuch talab qiladigan ish, ammo bilim asoslarini o'rganishda juda samarali, juda yaxshi sinalgai usuldir. Og'zaki nutqdan ko'ra qog'ozga yozilgan xolda bayon qilingan fikr ravon va puxta bo'ladi.

Konspekt yozishning yana bir afzalligi shundaki, o'rganilgan, yozib olingan material xotirada yaxshi saqlanib qoladi, uni darrov yesga olish mumkin bo'ladi. Konspekt ancha vaqt o'tib ketganidan keyin ham, qimmatli material sifatida xizmat qiladi, sinov va imtihonlarga tayyorlanishni osonlashtiradi. Konspekt olish jarayonida talaba reja tuzish, tezis. yozish, sitatalar olish kabi turli xil yozuv shakllarini ham o'zlashtirib boradi.

Konspektni to'g'ri va ma'lum tartibda yozishga alohida ye'tibor berish lozim. Konspektni daftar saxifasiga bir xil, bir sidra yozib ketavermasdan, ba'zi xollarda ayrim so'zlarni, qisqa tushunchalarni yaqqol ko'rinib turadigan shaklda alohida bo'rttirib yoki bosma shriftlarda yozish ma'qul. Sarlavxalar, yillar, xulosalar, sitatalar tagiga rangli qalam bilan chizib, alohida ajratib yozish ham mumkin.

Daftar saxifasiing chet tomonidan saxifaning to'rtdan bir qismicha joyni ochiq qoldirish lozim. Ochiq qoldirilgan joyga qo'shimcha ma'lumotlarni yozib borish, konspektni tekshirib, unga ayrim o'zgarishlar, aniqliklar kiritish

maqsadga muvofikdir.

O'zbekiston tarixi, Iqtisodiy nazariya, Politologiya va boshqa fanlar bo'yicha bo'ladigan seminar mashg'ulotlariga tayyorlanishda mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimovning qator asarlarini, Oliy Majlisning sessiyalarida so'zlagan ma'ruza va nutqlarini konspektlashtirishga to'g'ri keladi. Masalan, "Bozor munosabatlariga o'tishning O'zbekiston modeli" mavzusida bo'ladigan seminarga tayyorlanishda Islom Karimovning "O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li" va "O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida" asarlarining tegishli bo'limlaridan konspekt olish tavsiya etilgan. Bu asarlarni o'qib ishlab chiqarishning ipidan-ignasigacha bo'lgan jarayonlarni bir markazdan turib rejalashtirish, iqtisodiyotni to'ralarcha, ma'muriy buyruqbozlik usuli bilan boshqarish, resurslarni noiqtisodiy yo'l bilan taqsimlashga asoslangan iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga o'tish xaqidagi nazariy-metodologik xulosalarni aniq o'zlashtirib olish va konspektlashtirish lozim. Mazkur asarlarni o'qib bozor munosabatlariga o'tashning O'zbekiston modeli, avvalo, jahon tajribasidan, shuningdek O'zbekistonning shart-sharoitlari va imkoniyatlaridan, o'ziga xos milliy xususiyatlardan kelib chiqqanligini bilib olish lozim. Asosiy ye'tiborni bozor iqtisodiyotiga o'tishning Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan besh asosiy tamoyillarni, ularning mohiyati va ahamiyatini bilib olish va konspektlashtirishga qaratish zarur.

Gazetalar hamda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy jurnallarni o'qib borish siyosiy saviyani oshirishga ko'maklashadi. Ularda bosilayotgan maqolalar, statistik ma'lumotlardan foydalanish, konspekt daftarining tegishli joylariga yozib qo'yish katta natija beradi.

Seminar mashg'ulotlarida qatnashish, muhokama yetilayotgan masalalar bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirish har bir talabaning burchidir. Seminar qatnashchilari bir-birlarini diqqat bilan tinglashlari, bahslashuvlarga kirishib so'zlagan talabalar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatishlari, aniqliq va qo'shimchalar kiritishlari lozim.

Seminarda qatnashish ham ma'ruzani tinglash va yozish kabi katta mehnat qilish, tinmay va astoydil ishlash vaqtidir.

Kursdosh so'zlayotgan paytda, uni qo'lda qalam bilan tinglash, aytgan yangi fikr mulohazalarini yozib borish nihoyatda foydalidir.

Ma'lumki, o'qituvchi har bir muxokama qilingan masala bo'yicha, seminar oxirida o'rganilgan mavzu bo'yicha yakuniy fikr-muloxazalarni bildiradi, yakuniy xulosalar chiqaradi. Talaba o'qituvchining ana shu yakuniy fikrlarini, xulosalarini seminar daftariga, albatta, yozib olishi kerak. Ana shundagina seminar mashg'uloti talaba uchun muvoffaqiyatli yakunlangan, muhokama etilgan masala bo'yicha bilimlar puxta va chuqur o'zlashtirilgan bo'ladi.

### **TALABA MUSTAQIL ISHI**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Ijtimoiy kompleksining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hamda iqtisodiy islohotlar amalga oshirilishining 2009 yil I yarim yilligi yakunlari bo'yicha 2009 yil 4 iyul majlisi Bayonining 25-bandi topshirig'i, vazirlikning 2009 yil 9 iyul № 241/1-sonli

buyrug'i hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tadbirlar majmuining 1.4-bandi ijrosini ta'minlash, 2008/2009 o'quv yilida mustaqil ta'lim-tarbiya jadvali asosida tashkil qilingan maxsus tarbiyaviy kurslarni o'qitish bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari tahlili asosida 2009/2010 o'quv yilidan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv rejalarini takomillashtirish va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009 yil 14-avgustdagi 286-raqamli "Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish to'g'risida"gi buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida institut tomonidan maxsus yo'riqnoma ishlab chiqarilgan. Ushbu yo'riqnomaga binoan kadrlar tayyorlash milliy dasturida chuqur nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lish bilan bir qatorda tanlagan sohasi bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, o'z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondoshgan holda muammoli vaziyatlarni to'g'ri aniqlab, taxlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Ma'lumki, axborot va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlari paytida talabalarga yetkazish qiyin.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, talaba mustaqil ravishda shug'ullansa va o'z ustida tinimsiz ishlagina bilimlarni chuqur o'zlashtirishi mumkin. Talabalarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalari mustaqil ta'lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi.

Talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars mashg'ulotlarida talabalarni o'qitish bilan bir qatorda ularni ko'proq o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish, mustaqil ta'lim olish uchun yo'llanma berish institutning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

**Talaba mustaqil ishi (TMI)** - muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Uqishning boshlang'ich bosqichlarida TMI ni tashkil etish bir qator muammolar bilan bog'liq. Ayniqsa, birinchi kurs talabalarining ta'limning navbatdagi turi - oliy ta'lim talablarga ko'nikishi qiyin kechadi. Chunki ular ta'lim olish jarayonida o'z mustaqil faoliyatlarini tashkil qilishni deyarli bilishmaydi. Ma'lumotlarni qaysi manbadan, qanday qilib topish, ularni taxlil qilish va zarurlarini ajratib olib tartibga solish, konspektlashtirish, o'z fikrini aniq va yorqin ifodalash, o'z vaqtlarini to'g'ri taqsimlash, shuningdek, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini to'g'ri baholash ular uchun katta muammo bo'ladi. Eng asosiysi, ular mustaqil ta'lim olishga ruhan tayyor bo'lishmaydi.

Shuning uchun har bir professor-o'qituvchi dastlab talabada o'z qobiliyati va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg'otishi, ularni sabr-toqat bilan, bosqichma-bosqich mustaqil bilim olishni to'g'ri tashkil qilishga o'rgatib borishi lozim bo'ladi. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda o'zlashtiriladigan bilim va ko'nikmalarning kursdan-kursga murakkablashib, kengayib borishini hisobga

olgan holda ularning tashabbuskorligi va rolini oshirib borish zarur. Shunda mustaqil ishga ko'nika boshlagan talaba faqat o'qituvchi tomonidan belgilab berilgan ishlarni bajaribgina qolmay, o'zining ehtiyoji, qiziqishi va qobiliyatiga qarab, o'zi zarur deb hisoblagan qo'shimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda tanlab o'zlashtirib boradi.

**Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi jihatlar e'tiborga olinishi lozim:**

- o'qish bosqichi;
- muayyan fanning o'ziga xos xususiyati va o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi;
- talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi (tayanch bilimi);
- fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasi;
- talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va xajmi, qiyinchilik darajasi semestr-dan-semestr-ga ko'nikmalar hosil bo'lishiga muvofiq ravishda o'zgarib, oshib borishi lozim. Ya'ni, talabalarining topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularni topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashishga o'rgatib borish kerak bo'ladi.

TMIning tashkil etishda talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;
- amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish;
- ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash;
- kurs ishlari (loyihalari)ni bajarish;
- bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyasi uchun materiallar to'plash;
- hisob-kitob va grafik ishlarini bajarish;
- maket, model va badiiy asarlar ustida ishlash;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;
- ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash;
- amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash;
- uy vazifalarini bajarish va boshqalar;

Fan xususiyatidan kelib chiqqan holda talabalarga mustaqil ish uchun boshqa shakllardagi vazifalar ham topshirilishi mumkin. Talabalarga qaysi turdagi topshiriqlarni berish lozimligi kafedra tomonidan belgilanadi. Topshiriqlar puxta o'ylab ishlab chiqilgan va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, talabalarining auditoriya mashg'ulotlarida olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va to'ldirishga xizmat qilishi kerak.

**Mavzuni mustaqil o'zlashtirish.** Fanning xususiyati, talabalarining bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o'quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning

asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko'rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan foydalanib ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o'zlashtirish qiyin bo'lsa, savollar paydo bo'lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k.) o'qituvchidan maslahatlar oladilar.

Mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan matn kafedrada himoya qilinadi.

**Referat tayyorlash.** Talabaga qiyinchilik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo'lgan biror mavzu bo'yicha referat tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari qo'shimcha adabiyotlardan, monografiyalar, ilmiy, uslubiy maqolalar, Internetdan olingan ma'lumotlar, elektron kutubxona materiallari kabilardan) foydalanib materiallar yig'adi, taxlil qiladi, tizimga soladi va mavzu bo'yicha imkon darajasida to'liq, keng ma'lumot berishga harakat qiladi. Zarur hollarda o'qituvchidan maslahat va ko'rsatmalar oladi.

Yakunlangan referat kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

**Ko'rgazmali vositalar tayyorlash.** Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar, xaritalar, maketlar, modellar, grafiklar, namunalar, musiqiy asar, kichik badiiy asar va h.k.) tayyorlash topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga topshirish ham mumkin.

Talaba ko'rgazmali materiallardan foydalanish bo'yicha yozma ravishda tavsiyalar tayyorlaydi va kafedrada himoya qiladi.

**Mavzu bo'yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash.** Talabaga muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish topshiriladi.

Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali momentlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi. Konsultasiya paytlarida bajarilgan ishlarning qo'yilgan vazifa va talablarga javob berish darajasi nazorat qilinadi (qayta ishlab kelish, aniqlashtirish yoki to'ldirish taklif etilishi mumkin).

Test, savol va topshiriqlar majmuasi kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

**Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash.** Talabaga biron bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabaning o'zi tanlashi ham mumkin) ilmiy (referativ) karakterda maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertasiyalar, maqola va monografiyalar



hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallarni to'playdi, taxlil qiladi, zarurlarini ajratib olib, tartibga soladi, shaxsiy tajribasi va bilimi, ilmiy natijalariga asoslangan holda qo'shimchalar, izohlar kiritadi, o'z nuqtai-nazarini bayon etadi va asoslaydi. Bunda talaba o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi.

Tayyorlangan maqola, tezis yoki ma'ruza kafedrada himoya qilinadi.

**Amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash.** Bir mavzu yoki bo'lim bo'yicha nostandart, alohida yondashish talab qilinadigan, nazariy ahamiyatga ega bo'lgan amaliy topshiriqlar, ijodiy yondashish talab qilinadigan ilmiy-ijodiy vazifalar, modellar, maketlar, namunalar yaratish vazifasi topshirilishi mumkin. Amaliy topshiriqlar masalani hal qilishning optimal variantlarini izlashga va topishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Talabani qiziqish va qobiliyatiga qarab, unga ilmiy harakterdagi topshiriqlar berish, o'qituvchi bilan hamkorlikda ilmiy maqolalar tayyorlash va chop ettirish mumkin.

**Talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etishda:**

tizimli yondoshish;

barcha bosqichlarini muvofiqlashtirish va uzviylashtirish;

bajarilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish;

tashkil etish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirib borish zarur.

**Mustaqil ish topshiriqlari muvaffaqiyatli yakunlanishi uchun quyidagi talablar bajarilishi lozim:**

maqsad (bilimni mustahkamlash, yangi bilimlarni o'zlashtirish, ijodiy faollikni oshirish, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish va x.k.), aniq asoslanishi; vazifa va topshiriqlarning aniq-ravshan belgilanishi;

topshiriqlarni bajarish algoritmi va metodlaridan talabalarning yetarli darajada xabardor bo'lishi;

maslahat va boshqa yordam turlarining to'g'ri belgilanishi (yo'llanma va ko'rsatma berish, mavzuning mazmuni va mohiyatini tushuntirish, muammoli topshiriqlarni bajarish usullari bo'yicha tushuncha berish, ayrim muammoli momentlarni birgalikda hal qilish va x.k.);

hisobot shakli va baholash mezonini aniq belgilash;

nazorat vaqti, shakli va turlarini aniq belgilab olish (amaliy seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, konsultasiya uchun yoki nazorat uchun maxsus ajratilgan vaqt; ma'ruza yo referat matni, bajarilgan topshiriqlar daftari, nazorat ishlari, uy vazifasi daftari, kurs ishlari, test, maqola, nostandart topshiriqlar, savollar, maqola, ko'rgazmali jixozlar va ijodiy ishlar; savol-javob, bajarilgan ish mazmuni va mohiyatini tushuntirib berish, yozma shaklda bayon qilish va x.k.).

**Talabalar mustaqil ishini shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin:**

auditoriyada amalga oshiriladigan TMlari. O'tilgan mavzuni qayta ishlash, kengaytirish va mustahkamlashga oid topshiriqlar bajariladi;

auditoriyadan tashqarida amalga oshiriladigan TMlari. O'quv dasturidagi ayrim mavzularni mustaqil holda o'zlashtirish, uyga berilgan vazifalarni bajarish, amaliy va laboratoriya ishlariga tayyorgarlik ko'rib kelish, ijodiy va ilmiy-tadqiqot harakteridagi ishlar va h.k.

Birinchi tur ishlari talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini o'zlashtirib borish

darajasi, amaliy mashg'ulotlarga (amaliyot, laboratoriya, seminar darslari) tayyorgarlik saviyasi va uy vazifalarining bajarilish sifatini tekshirish maqsadida, odatda, nazorat ishlari olish, savol-javob, suhbat, munozara, amaliy topshiriqlarni bajartirib ko'rish va x.k. usullarda asosan amaliyot darslarida nazorat (joriy nazorat) qilinadi.

Joriy nazoratda talabaning dars paytida o'tilgan materiallarni o'zlashtirish va uyga berilgan topshiriqlarni bajarishdagi faolligi, bajarish saviyasi va o'zlashtirish darajasi e'tiborga olinadi.

Ikkinchi tur ishlar fanning ishchi o'quv dasturida auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishi belgilangan mavzu bo'yicha ma'lumot va axborotlarni mustaqil ravishda izlab topish, taxlil qilish, konspektlashtirish (yoki referat tarzida rasmiylashtirish) va o'zlashtirish, ijodiy yondashishni talab qiladigan amaliy topshiriqlarni bajarish ko'rinishida amalga oshiriladi. Bu turdagi ishlarni bajarish jarayoni va o'zlashtirish sifatining nazorati darsdan tashqari paytlarda, maxsus belgalangan konsultasiya soatlarida amalga oshiriladi.

**Talabalar mustaqil ishini baholash.** TMI natijalari amaldagi "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi Nizom"ga asosan baholab boriladi.

"Tasdiqlayman"

Kafedra mudiri

28.08.2009

**"Mutaxassislikka kirish" fanidan ishchi dastur bajarilishining kalendar tematik rejasi \***

T/r	Modul va mavzu nomlari	Mashg'ulot turi	Ajratil-gan vaqt	Talaba mustaqil ishi mavzusi va mazmuni	Mustaqil ish shakli	Bajarilishi haqida ma'lumot		O'qituv-chi imzosi
							Oy va kun	
<b>I modul</b>								
1	Ekologiya maxsus kursiga kirish	Ma'ruza	2	Gullash va changlanishni o'qib taxlil qilish	Referat			
2	Usimliklarni ekologo-morfologik tavsiflash	Ma'ruza	2					
3	"Antekologiya" fanida qo'llaniladigan metodlar	Amaliy ish	2					
4	Usimliklarni ekologo-morfologik tavsiflash usullari	Amaliy ish	2	Berilgan boshqa tur o'simlikka ekologo-morfologik tavsifnoma tuzib kelish	Yezma tavsifnoma			
5	Usimlikning rivojlanish davrlari fenospektrlarini tuzish metodikasi	Amaliy ish	2	Berilgan jadvaldagi ma'lumotlar yordamida qovun navlari fonospektrlarini tuzish	Fenospektrlar tuzib kelish			
<b>II modul</b>								
6	Gulning tuzilishi va xillari	Ma'ruza	2	Berilgan o'simlik turi gullarini taxlil qiling va rasmini chizib oling	Yezma uy ishi			



7	Androsey va ginesey	Ma'ruza	4	23-rasmdagi androseylar tuzilishini taxlil qilib, ularni xillarga ajrating 1. (23-rasm)				
8	Gul biologiyasi	Ma'ruza	2	G'uncha rivojlanishi bosqichlarini taxlil qiling, undagi ochilish jarayonida bo'ladigan o'zgarishlarni aniqlang	Yezma uy ishi			
9	G'unchaning o'sish maromi va rivojlanish bosqichlarni aniqlash	Amaliy ish	2	Berilgan o'simlik tur g'unchalarini o'rganing va rivojlanish bosqichlariga ajrating	Yezma hisobot			
10	Gul formulasi va diagrammasini tuzish	Amaliy ish	2	Berilgan o'simlik turi gul formulasi va diagrammasini tuzib kelish	Ijodiy ish			
11	Chang tuzilishi va fertilligi	Amaliy ish	2	Berilgan o'simlik turi changini fertilligini aniqlab kelish	Yezma uy ishi			
12	Urug'kurtak fertilligini aniqlash	Amaliy ish	4	Soya yoki beda o'simligi guli urug'kurtaklar fertilligini aniqlash	Yezma hisobot			
13	Gul biologiyasini o'rganish	Amaliy ish	2	Jadvalda berilgan ma'lumotlarni taxlil qilib, gul ochilishi davri fenospektrini tuzib kelish	Grafik va hisobot			
<b>III modul</b>								
14	Usimliklar gullashi	ma'ruza	2					
15	Changlanish va uning xillari	ma'ruza	2					
16	Usimlikning mavsumiy	Amaliy	2	Berilgan jadvaldan	Grafik va			

	gullash aniqlash	marrini	mashg'ulot		foydalanib Qashqarbedainng mavsumiy gullash maromi grafigini tuzib keling (2001-2002 yil)	hisobot			
17	Usimlikning gullash aniqlash	sutkaviy maromini	Amaliy mashg'ulot	2	Berilgan jadvaldan foydalanib Qashqarbedaning sutkaviy gullash maromini tuzing	Grafik va hisobot			
18	Anemofil o'simliklar changlanishi ekologiyasi		Laboratoriya ishi	2	Gullayotgan anemofil o'simlik gulidan changlarini yig'ib olib fertilligini aniqlang	Yezma hisobot			
19	Entomofil o'simliklar changlanishi ekologiyasi		Laboratoriya ishi	2	Berilgan o'simlik turi changlanishida qaysi hashoratlar qatnashishini aniqlash	Yezma hisobot			
20	Yakuniy dars		Takrorlash darsi	2					
21	Jami: Jumladan: ma'ruza amaliy mashg'ulot laboratoriya ishi mustaqil ish			86 18 22 4 42					

\*Izoh: TMI hajmidan kelib chiqib o'quv jadvaliga haftasiga bir marta kunning ikkinchi yarmiga konsultatsiya darsi qo'yiladi (TMI 42 soat /20 hafta = 2 s.)

**«Mutaxassislikka kirish» fanidan reyting ishlanmasi va baholash mezonlari**

**Reyting ishlanmasi**

<b>T/r</b>	<b>Nazorat turlari</b>	<b>Soni</b>	<b>Ball</b>	<b>Jami ball</b>
<b>I.</b>	<b>JB</b>			
	1.1. Amaliy mashg'ulotni bajarish	5	5 (2+2*)	25
	1.2. Laboratoriya ishini topshirish	2	5 (3+2*)	10
	1.3. TMI (Ponomarevning klassik ishini taxlil qilish) - yozma referat tayyorlash	1	5*	5
<b>II.</b>	<b>OB</b> 2.1. Yozmaish	2	22,5	45
<b>III.</b>	<b>YaB</b>			
	3.1. Yakuniy baholash	1	15	15
	3.1.1. Yozma ish (3 ta savol) 3.1.2. Test (30 tasavol)		(5x3=15) (30x0,5=15)	
<b>Jami</b>				100

**«Mutaxassislikka kirish» kursidan baholash mezoni**

1.1. Amaliy mashg'ulotda qatnashib, uning topshiriqlarini to'la sifatli bajargan talabaga 1,7-2 ball beriladi, agar to'la bo'lmasa bajarish darajasiga qarab 1-1,6 ballgacha beriladi.

1.2. Laboratoriya ishi topshiriqlarini to'la mustaqil bajargan va amalda qo'llay oladigan talabaga 2,5-3 ball, to'la bajarmagan talabaga bajarilgan ish hajmiga va sifatiga qarab 1,5-2,4 ballgacha beriladi.

1.3. \*Amaliy va laboratoriya ishlari bo'yicha berilgan talabalar mustaqil ishlarining bajarilishi hajmi va sifatiga qarab 1 dan 2 ballgacha berilishi mumkin (topshiriqlar to'liq va sifatli, ijodiy tarzda bajarilgan - 1,8-2 ball, sifatli va me'yor talablari darajasida - 1,5-1,7 ball, o'rta darajada -1,1-1,4 ball).

2.1. Oraliq baholash yozma tarzda o'tkazilib, undan 3 ta savolga javob berishi so'raladi. Har bir savol 7,5 ballgacha baholanadi.

- agar savol mohiyati to'la ochilgan bo'lsa, javoblari to'liq va aniq hamda ijodiy fikrlari bo'lsa- 6,9-7,5 ball

-savolning mohiyati umumiy ochilgan asosiy faktlar to'g'ri bayon etilgan bo'lsa- 6,1 – 6,9 ball

-savolga umumiy tarzda javob berilgan, ammo ayrim kamchiliklari bo'lsa 5,4-6,1 ball

-savolga umumiy javob berilgan, ammo ayrim faktlar to'liq yoritilmagan bo'lsa 4,6-5,4 ball

-savolga javob berishga harakat qilingan, ammo chalkashliklar bo'lsa – 3,9-4,6 ball beriladi.

2.2.Talabaning mustaqil ishi- A.N. Ponomarevning klassik ishini tadqiq qilishga bag'ishlangan bo'lib, berilgan mavzu bo'yicha referat tayyorlanadi:

-referatda mavzu to'liq ochilgan, to'g'ri xulosa chiqarilgan va ijodiy fikrlari bo'lsa- 4,6-5 ball

-mavzu mohiyati ochilgan, faqat xulosasi bor - 4,1- 4,5 ball

-mavzu mohiyati yoritilgan, ammo arziyas kamchiligi bo'lsa – 3 - 4 ball beriladi.

-mavzu mohiyati yoritilgan, ammo ayrim kamchiliklari bor bo'lsa - 2,5-3 ball beriladi.

3.1. Yakuniy baholashda talaba 3 ta savolga yozma yoki 30 ta test savoliga javob berishi lozim.

-har bir yozma savolga 5 ball ajratiladi.

-Agar savol mohiyat to'la ochilgan bo'lib, mavzu bo'yicha talabaning tanqidiy nuqtai nazari bayon qilingan bo'lsa - 4,5-5ball

-savolning mohiyati to'la ochilgan, asosiy faktlar to'g'ri bayon qilgan bo'lsa - 4,1-4,4 ball

-savolga to'g'ri javob berilgan, lekin ayrim kamchiliklari bor bo'lsa-3,1-4 ball

-berilgan savolda javoblar umumiy va kamchiliklar ko'proq bo'lsa - 2,6-3 ball beriladi

-test savolining har biri 0,5 ballik tizimida baholanadi.

### **Talabalar mustaqil ishi bo'yicha konsultasiyalar tashkil etish tartibi**

1. Talabalar mustaqil ishi (TMI) bo'yicha konsultasiya darsi auditoriyadan tashqarida amalga oshirishga mo'ljallangan mustaqil ishlarni bajarish yuzasidan tegishli yo'llanmalar berish va uni bajarilishini nazorat qilib borish maqsadida tashkil qilinadi.

2. TMI bo'yicha konsultasiya darsi fanning kalendar-tematik rejasiga muvofiq o'tkaziladi.

3. Konsultasiya darsi tegishli fan o'qituvchisi tomonidan o'tkaziladi.

4. Fan o'qituvchisi konsultasiya darsida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

TMI topshiriqlarini bajarish yuzasidan tegishli yo'llanma beradi; topshiriqni bajarish rejasini tuzishga yordamlashadi; tegishli adabiyotlar va axborot manbalarini tavsiya qiladi; TMI yuzasidan tayyorlangan ishlanma, hisobot, referat, hisob-kitob va topshiriq natijalarini qabul qiladi hamda baholaydi.

5. TMI bo'yicha konsultasiyalar o'quv jarayonining 1 yoki 2 smenada tashkil etilishiga qarab talabalarning darsdan bo'sh vaqtlarida dars jadvaliga kiritiladi.

Hafta kunlari	Juft-lik	Fan nomi	Auditoriya	Mashg'ulot turi	Uqituvchining F.I.Sh.
Dushanba	1	Uzbekiston tarixi	351	Ma'ruza	dos.X.Normurodov
	2	Botanika va o'simliklar fiziologiyasi	9	Ma'ruza	dos. S. Mustanov
	3	Tuproqshunoslik	120 124	Laboratoriya ishi	Assistentlar A.Sadinov, Sh.Xazratqulov
	4	TMI (Mutaxassislikka kirish)	120	Konsultasiya	dos. M.Xolmurzayev

6. TMI bo'yicha konsultasiya darslari o'qituvchi jurnalida qayd etib boriladi.

## **9. KITOB USTIDA ISHLASH**

Kitob bilimlar manbaidir, inson tomonidan bilim, malaka va muayyan ko'nikmalar tizimini yegallash kalitidir.

Talaba kitob, darslik, o'quv qo'llanmalari ustida ishlash orqali zarur bilimlarni yegallaydi, o'z dunyoqarashini shakllantiradi. Oliy maktabda kitob ustida mustaqil ishlash ta'lim va tarbiyaning muhim shakli hisoblanadi.

Kitob ustida ishlash talabalik yillaridagi faoliyatda asosiy, markaziy o'rinni yegallaydi, bu jiddiy mas'uliyatli ijodiy, aqliy mehnatdir. Kitob ustida ishlash metodikasini bilish muvaffaqiyat garovidir. Kitob ustida ishlash ko'p bosqichli adabiyotlarni tanlashdan iborat.

O'qish lozim bo'lgan adabiyotlar o'rganilayotgan predmetning o'quv dasturida ko'rsatilgan bo'ladi yoki o'qituvchi tomonidan tavsiya yetiladi.

Kerakli kitobni kutubxonadan topish mumkin. Kutubxonada bibliografiya bo'limi bor, ana shu bibliografiyadan foydalanishni o'rganib olish lozim. bibliografiya bo'limida kitoblarni topishga yordam beradigan alfavit va sistematik (tematik) kataloglar bo'ladi.

Alfavit katalogda kutubxonada mavjud bo'lgan har bir kitob yoki maqolaga muallifning familiyasi hamda kitob yoki maqolaning nomi yozilgan maxsus kartochka bo'ladi. Ana shu kartochkalar alohida qutichalarga alfavit bo'yicha qat'iy bir tartibda joylashtirilgan bo'ladi. Katalogda kitob yoki maqola muallif familiyasining bosh xarfi bo'yicha joylanadi. Kitob yoki maqolaning muallifi bo'lmasa, ularning kartochkalari katalogga kitob yoki maqola nominiig biriichi xarfi bo'yicha qo'yiladi.

Alfavit katalog tuzishiing ahamiyati katta, u kerakli kitob yoki maqolaning kutubxonada bor-yo'qligini tezda aniqlashga imkon beradi. Bu borada talabaga kutubxona xodimi ko'maklashishi mumkin.

Sistematik katalogda adabiyotlar ularda qanday masalalar haqida gap yuritilayotganiga qarab ma'lum bir sistemaga keltirilgan. Sistematik katalogda kitoblar ma'lum bilimlar sohasi bo'yicha, masalan, O'zbekiston tarixi, Iqtisodiy nazariya, Politologiya va hokazo joylashtirilgan bo'ladi. U ma'lum bir bilimlar sohasi bo'yicha kerakli kitobni topishga ko'maklashadi. Masalai, "Jadidlar harakati" degan mavzuga doir adabiyotni tanlash zarur bo'ladi, deylik. Bu mavzu O'zbekiston tarixi kursida o'tiladi. Sistematik katalogda "O'zbekiston tarixi" bo'limi qidirib topiladi. Ana shu bo'limda "Jadidlar harakati to'g'risida" degan yozuvli kartochka bor, kartochka orqasidan "Jadidlar harakati" to'g'risida mavjud bo'lgan kitob va maqolalar kartochkalarini topasiz.

O'qishning dastlabki paytlarida kitobni topib olish qiyinroq bo'ladi. Shu sababli kutubxona xodimlariga murojat qilib, ulardan yordam olish mumkin. Kutubxona xodimlari kitoblarni alfavit yoki sistematik katalogdan qanday topish lozimligi xaqida maslahatlar ham beradi.

Kutubxonada gazeta va jurnallarda bosilgai maqolalarning kartotekasi ham bo'ladi. Bu kartateka ham sistematik katalog singari ma'lum masalalar yoki muammolar bo'yicha tuziladi.

Institut kutubxonasida kataloglarga qo'shimcha ravishda ma'lum masalalar, mavzular hamda o'rganilayotgan fanlar bo'yicha tavsiya yetiladigan adabiyotlar ro'yxati ham bo'ladi. Ularda kitob mazmuni haqida annotasiya, muallifi hamda kitobda yoritilgan masalalar to'g'risida qisqacha ma'lumot beriladi.

Kitob tanlanib, topib olingach kitob ustida ishlashning ikkinchi bosqichi boshlanadi, ya'ni kitob bilan bir sidra umumiy tarzda tanishib

chiqiladi.

Kitob bilan umumiy tarzda taiishish jarayonida uning nomi, muallifi. uni nashr yetgan nashriyot, chop etilgan yili kabilarga ye'tibor beriladi. So'ngra kitobning so'z boshini o'qib, undan ushbu kitob kimlarga mo'ljallangani, qanday materiallarga asoslanib yozilgani va boshqalar aniqlanadi.

Talaba kitobning mundarijasi bilan tanishib boblar, qismlar, paragrflarning nomlariga ye'tibor beradi va o'rganishi lozim bo'lgan mavzuga aloqadorlik darajasini hisobga oladi. Kitobning xotima qismi bilan ham tanishib chiqadi. Shu tariqa talaba kitob to'g'risida umumiy bir fikrga keladi.

Yendi kitob ustida ishlashning navbatdagi - uchinchi bosqichiga o'tiladi, ya'ni kitobni boshidan o'qishga, mutolaa qilishga kirishadi. Kitobni birinchi o'qish jarayonida talaba uning mazmuni hamda bayon tartibi bilan tanishib oladi, ammo birinchi o'qishda kitobning to'la ma'no mag'zi chaqilmasligi mumkin, kitobdagi asosiy holatlarning hammasi xotirada qolmaydi.

Kitobni chinakamiga o'rganish va undagi asosiy holatlarni chuqur anglab-tushunib olish uchun uni takror-takror o'qishga to'g'ri keladi. Kitobni o'qish jarayonida yangi so'zlar, terminlar, ilmiy tushunchalar uchrasa, ularni aniqlab olish zarur. Bu borada Sizga turli lug'atlar ("Chet tillar so'zlari lug'ati", "Rus tili lug'ati", "Iqtisodiy terminlar lug'ati", "Yensiklopediyalar") yordam beradi, Bunday lug'atlarni institut kutubxoiasidan topish mumkin.

Kitobni faol, diqqat bilan o'qilgandagina puxta bilim olish mumkinligini, yuzaki, ye'tiborsiz o'qish bilan bilim o'rganib bo'lmasligini ham yesda saqlash kerak.

Kitobda o'zlashtirish qiyinroq material uchrab qolsa, o'sha joyni qayta-qayta tushunib olguncha o'qish lozim. Kitob mazmunini tushunib olgach, o'z tushunchalaringiz to'g'risida o'ylab ko'ring, xotirangizga kiriting. Kitobda sxemalar, diagrammalar, jadvallar, xaritalar bo'lsa ularni diqqat bilan o'rganing, tahlil qiling, ular kitob mazmunini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Nihoyat, kitob ustida ishlashning to'rtinchi bosqichi, o'qigan kitobni konspektlashtirishdir. Shuni uqib olingki, o'rganilayotgan materialni konspekt qilish bilangina chuqur bilim olish, uni yesda saqlab qolish mumkin. Yozuv insondagi yana yangi hissiyot organlarini safarbar yetadi. Yozuv o'qilgan materialni fikran tahlil qilishga o'rgatadi, vaqti-vaqti bilan konspektga qarab kitob mazmunini yesga tushurish mumkin.

Konspektlashtirishda reja tuzishniig ahamiyati katta. Kitob mundarijasi konspekt rejasi uchun asos bo'lishi mumkin. Reja kitobni qunt bilan o'qishga, barcha masalalarni puxta tushunib olishga, kitobning muhim joylarini topish, yozish va yeslab qolishga yordam beradi.

Kitobda boshqa so'zlar bilan to'la ifodalab bo'lmaydigan darajada yorqin va ma'noli fikrlar ham uchrab turadi. Bularni kitobdan ko'chirib yozish lozim bo'ladi. Shuningdek nazariy tushunchalar, tarix voqyealarining tavsifi, ta'riflar ham so'zma-so'z ko'chirib olinadi. Ulardan kurs va bitiruv malakaviy ishlarida, ma'ruzalarda, maqolalarda foydalanish mumkin. Bunday



ko'chirma yozuvlar sitatalar deyiladi. Katta sitatani ko'chirib olayotganda ba'zi so'zlarni, hatto butun bir jummalarni tashlab ketish mumkin, ularning o'rniga nuqtalar qo'yiladi. Bunday hollarda muallif fikrini buzmaslik zarur. Sitatalar (boshqalarning fikr-muloxazalari) qo'shtirnoq ichiga olinadi, oxirida shu sitata olingan manba yoki kitob va uning nechanchi betda yekanligi yozib qo'yiladi, Masalan, sitata quyidagicha yoziladi: "Yangidan tashkil etilgan fermer xo'jaliklarida birinchi yilning o'zidaq paxtani hosildorligi 6.4 sentnerga, donning hosildorligi 5.3 sentnerga oshdi"<sup>2</sup> (O.Olimjonov va boshqalar. Fermerlik faoliyatining huqukiy va moliyaviy asoslari. Toshkent, "Universitet" 2005 yil, 8-bet.).

Kospekt asar mazmunini yeng muhim faktlar, nomlar, raqamlar, ismlarni keltirilgan xolda qisqacha bayon qilinshidir. Kospekt yozganda kitobdan bir sidra ko'chirib yozmasdan, o'z tushunchalaringizni o'z so'zlaringiz bilan ifodalab yozishga o'rganing.

Kospekt olishning yanada qisqaroq shakli ham bor, u **tezislar** deyiladi. Tezislar yozish ham kitob ustida ishlash mahsulidir. Tezislar o'rganilayotgan materialning asosiy holatlarini qisqacha va lo'nda ifodalashga imkon beradi.

Tezislar oddiy va murakkab bo'lishi mumkin. Oddiy tezis isbot-dalilsiz bitilgan yozuv bo'lib, faqat bittagina holat ifodalanishi mumkin. Jumladan, "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat".

Murakkab yoki kengroq tezislar qisqacha ta'riflangan asosiy holatlarni kengroq talqin qilib beradi.

Tezislar mavzu yaxshi o'zlashtirilgan yoki material mufassal kospekt talab qilinmaydigan hollarda tuziladi.

O'qish jarayonida turli fanlar bo'yicha, turli mavzularda **referat** yozishga to'g'ri keladi. "Referat" so'zi lotincha "referre" so'zidan olingan bo'lib, ma'ruza qilmoq, axborot bermoq, degan ma'noni anglatadi. Referat tayyorlash kitob ustida ishlashning qiziqarli shaklidir.

Referat yozish kitobni kospektlashtirishga nisbatan ko'p vaqt va mehnatni talab qiladi. Negaki materialni yanada puxtaroq tahlil qilish va chuqurroq o'ylash, o'qilgan materialga va fikr-mulohazalarga tanqidiy ko'z bilan qarash, umumlashtirish va xulosalar chiqarish zarur bo'ladi. Referat aniq mavzularda yozilsa yaxshi natija beradi.

Referat seminar mashg'ulotlarida, nazariy-amaliy konferensiyalarda tanlanadi va muhokama kilinadi va baholanadi.

Mana Siz kitob ustida ishlash metodikasi haqida tushuncha oldingiz. Yendi ularga asoslanib kitob ustidagi ishingizni takomillashtirib boring.

## **10. TALABA BILIMINI REYTING USULIDA BAHOLASH**

Talabalar bilimni nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad ta'lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga yerishish, talabalarning fanlarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishining

---

<sup>2</sup> O.Olimjonov va boshqalar. Fermerlik faoliyatining huqukiy va moliyaviy asoslari. Toshkent, "Universitet" 2005 yil, 8-bet.



oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf yetishdan iborat.

Reyting tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) talabalarda Davlat ta'lim [standartlariga](#) muvofiq tegishli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;

b) talabalar bilimi, ko'nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: Davlat ta'lim [standartlariga](#) asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik va qulay shaklda baholashni ta'minlash;

v) fanlarning talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil yetish va tahlil qilish;

g) talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari manbalaridan samarali foydalanishni tashkil yetish;

d) talabalar bilimini xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma'lum qilish;

ye) talabalarining fanlar bo'yicha kompleks hamda uzluksiz tayyorgarligini ta'minlash;

yo) o'quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga sharoit yaratish.

Fanlar bo'yicha talabalar bilimini semestrda baholab borish reyting nazorati jadvallari va baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi.

Nazorat turlari, uni o'tkazish tartibi va mezonlari kafedra mudiri tavsiyasi bilan institutning (fakultet) o'quv-uslubiy kengashida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi hamda har bir fanning ishchi o'quv dasturida mashg'ulot turlari bilan birgalikda ko'rsatiladi.

Reyting nazorati jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarning saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga ye'lon qilinadi.

Talabalarining bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim [standartlariga](#) muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlarini o'tkazish nazarda tutiladi:

**joriy nazorat** – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarida og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

**oraliq nazorat** – semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazoratning soni va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan (Auditoriya va mustaqil ta'lim) kelib chiqqan holda kafedra tomonidan belgilanadi;

**yakuniy nazorat** – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish", og'zaki, test va hokazo shaklida o'tkaziladi.

Oraliq nazoratni o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, oraliq nazorat natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda oraliq nazorat qayta o'tkaziladi.

Institut rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni o'tkazish jarayoni davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda yakuniy nazorat qayta o'tkaziladi.

O'quv yili tugaganidan keyin reyting nazorati natijalariga ko'ra talabalarni keyingi kursga o'tkazish to'g'risida belgilangan tartibda qaror qabul qilinadi.

Talabalarining bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning har bir fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

Har bir fan bo'yicha talabaning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball nazorat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

-yakuniy nazoratga – 15 ball;

-joriy va oraliq nazoratlarga – 85 ball (fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 85 ball o'quv rejadagi soatlarning proporsionalligini ta'minlash maqsadida joriy nazoratga - 40 ball, oraliq nazoratga- 45 ball kafedra tomonidan joriy va oraliq nazoratlarga taqsimlanadi).

Mustaqil ta'lim mavzularini o'zlashtirish joriy va oraliq nazoratlarga qushilgan holda baholanadi. Oraliq nazoratlar fanlarga o'quv rejalarda ajratilgan soatlar hajmidan va xususiyatlaridan kelib chiqib har 18-22 soatga bitta oraliq nazorat o'tkazilishi maqsadga muvofiq.

Talabaning reyting daftarchasiga alohida qayd qilinadigan kurs ishi (loyihasi, hisob-grafik ishlari), malakaviy amaliyot, fan (fanlararo) bo'yicha yakuniy davlat attestasiyasi, bitiruv malakaviy ishi va magistratura talabalarining ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlari, magistrlik dissertasiyasi bo'yicha o'zlashtirish darajasi – 100 ballik tizimda baholanadi.

Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar tavsiya yetiladi:

a) 86-100 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- xulosa va qaror qabul qilish;
- ijodiy fikrlay olish;
- mustaqil mushohada yurita olish;
- olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga yega bo'lish.

b) 71-85 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- mustaqil mushohada yurita olish;
- olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga yega bo'lish.

v) 56-70 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga yega bo'lish.

v) quyidagi hollarda talabaning bilim darajasi 0-55 ball bilan baholanishi mumkin:

- aniq tasavvurga yega bo'lmaslik;
- bilmaslik.
- Talabaning fan bo'yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi:

$$R_f = \frac{V \cdot O'}{100}$$

bu yerda:

V – semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda);

O' – fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

Kurs ishini reytingga aylantirishda o'quv yuklamasi 30 soat, kurs loyihasi uchun 50 soat, BMI va MDlar uchun 100 soat belgilanadi.

Fan bo'yicha **joriy, oraliq va yakuniy** nazoratlarning har biriga ajratilgan ballning **55 foizi saralash ball** yetib belgilanadi.

Joriy va oraliq nazoratlarning har biriga ajratilgan ballning saralash bali 55 foizdan ortiq ball to'plagan barcha talabalar ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kiritiladi.

Agar talaba **yakuniy nazorat**da shu nazorat turi bo'yicha saralash balidan yuqori ball to'plasa, bu ball joriy va oraliq nazoratlarda to'plagan ballarga qo'shiladi. Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali **har bir nazorat turidan** belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

Joriy va oraliq nazoratlarda saralash ballidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

Belgilangan muddatlarda topshirilmagan joriy va oraliq nazorat ballari keyingi baholash ballariga qo'shilmaydi va qayta topshirishga ruxsat berilmaydi.

Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

Semestr yakunida fan bo'yicha joriy, oraliq yoki yakuniy nazorat turlarini *har biri* bo'yicha saralash balidan kam ball to'plagan talabaning o'zlashtirishi qoniqarsiz (akademik qarzdor) hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun 2 hafta muhlat beriladi. Shu muddat davomida fanni o'zlashtira olmagan talaba, fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari ye'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat yetishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyasiya komissiyasi talabalarining arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv bo'limi hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Talabaning fan bo'yicha nazorat turlarida to'plagan ballari semestr yakunida reyting qaydnomasi va reyting daftarchasiga butun sonlar bilan qayd qilinadi. Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasiga qayd yetilmaydi.

Har bir fan bo'yicha o'tkaziladigan nazorat turlarining natijalari guruh va professor-o'qituvchi jurnallari hamda qaydnomada qayd yetiladi va shu kunning o'zida (nazorat turi yozma ish shaklida o'tkazilgan bo'lsa, 2 (ikki) kun muddat ichida) talabalar ye'tiboriga yetkaziladi.

## **11. TALABALAR TOMONIDAN QOLDIRILGAN DARSLARNI O'ZLASHTIRISH TARTIBI**

O'qituvchi darsga kirganda talabalarni yo'qlama qiladi va darsga kelmagan talabalarni jurnalga belgilab qo'yadi. O'qituvchi keyingi darsga kelganda avvalgi darsga kelmagan talabalarni ogohlantiradi va oliy o'quv yurti belgilangan tartibda qoldirilgan darsni o'zlashtirish (otrabotka qilish)ni maslahat beradi va kafedrada o'zi bo'ladigan kunlarning jadvalini aytadi.

Kafedra o'qituvchilari darsdan chiqgach kafedrada joriy etilgan maxsus jurnalga darsga qatnashmagan talabalarining familiyasi va ismi-sharifi, guruhi, fanning nomi, dars shakli va mavzusini qayd qilib qo'yishi shart.

O'qituvchi bo'lmagan taqdirda, talaba qoldirgai darsni belgilangan muddatda kafedra mudirining ko'rsatmasi bilan kafedradagi navbatchi o'qituvchiga topshirishi mumkin.

Talabalar qoldirgan darslarini o'zlashtirish masalalari bo'yicha dekanatlar qoshida komissiya tuzilib, uning tarkibiga kafedra mudirlari kiritiladi. Komissiya talabalarining qoldirgan darslarini o'zlashtirishni muntazam nazorat qilib boradi va kamida oyda 1 marotaba yig'ilib, majlis o'tkazadi. Majlislar bayonnoma shaklida rasmiylashtirib boriladi.

Uch martagacha darsga qatmashgan talabalarni qoldirgan darsini topshirish masalasini kafedra mudiri hal qiladi; uch martadan ortiq dars qoldirgan talabalar masalasini komissiya hal qiladi.

Semestr davomida hamma fanlardan uzrsiz sabab bilan darslarning 30 soatidan ko'piga qatnashmagan talabalar komissiya tavsiyasi asosida rektorning buyrug'i bilan oliy o'quv yurtidan chetlashtiriladi.

Talabalar tomonidan qoldirilgan dars (shaklidan qat'iy nazar) yozma ravishda topshiriladi; topshirilgan ish kafedra jurnalida ro'yxatga olinadi va o'quv yili oxirigacha kafedrada saqlanadi; ro'yxat nomeri talabaning o'qituvchiga topshirgan daftarida ham qayd yetiladi.

Darslarni qoldirgan talabalar doimo guruh murabbiysining diqqat ye'tiborida bo'lishi lozim.

Oliy o'quv yurti Yo'riqnoma asosida talabalar tomonidan qoldirilgan darslarni o'zlashtirish tartibini ishlab chiqadi, uni ilmiy kengashda tasdiqlab, o'quv jarayoniga tadbiiq yetadi.

Uzrli sabablarga ko'ra mashg'ulotlarga kelaolmay qolgan talaba kechi bilan yertasi kuni shu to'g'risida fakultet dekanini xabardor qilib qo'yishi va institutga kelgan kuniyoq mashg'ulotga kelolmaganligining sababi ko'rsatilgan hujjatni topshirishi lozim. Kasal bo'lib qolgan taqdirda fakultet dekaniga tegishli davolash muassasasining belgilangan namunadagi ma'lumotnomasini topshiradi.

Auditoriyaga o'qituvchi kirib kelganida talabalar o'rinlaridan turishlari shart.

Talabalar intizomli bo'lishlari va institutda ham, ko'cha-ko'yda ham jamoat joylarida ham hamisha yaxshi, ozoda, kastyum-shimda kiyingan, galstuk taqqan bo'lishlari kerak.

Fanlarni yaxshi o'zlashtirayotgani, ishlab chiqarish ishlaridagi yuksak ko'rsatkichlari hamda institutning jamoat ishlarida faol qatnashganligi uchun talabalarni taqdirlashning quyidagi tadbirlari amalga oshirib turiladi:

- a) tashakkur ye'lon qilinadi;
- b) yorliqlar bilan mukofatlanadi;
- v) qimmatbaho sovg'alar beriladi;
- g) mukofotlar topshiriladi.

O'quv intizomini, ichki tartib-qoidalar hamda talabalar turar joyi qoidalarini buzganliklari uchun talabalarga quyidagi choralarning birontasi qo'llanilishi mumkin:

- a) tanbeh beriladi;
- b) hayfsan ye'lon qilinadi;
- v) ogohlantirgan xolda qat'iy hayfsan ye'lon qilinadi;
- g) talabalar safidan chetlatiladi.

## 12. INSTITUT ХУДУДИДАГИ TARTIB-QOIDALAR

Institut binolarida quyidagilar man yetiladi:

- a) palto va bosh kiyimda yurish;
- b) qattiq gapirish, shovqin solish, mashg'ulotlar vaqtida koridorlarda yurish;
- v) institut hududida chekish.

Talabalar institut mulkiga (jihazlar, o'quv qo'llanmalari, kitoblar, asboblari va boshqalarga) nisbatan yehtiyotkorlik munosabatida bo'lishlari shart. Talabalarga institut mamuriyatining ijozatisiz o'quv va boshqa binolardan biror predmet va har xil asbob yoki jihaz, uskunani olib chiqishlariga ruhsat berilmaydi.

Talabalar quyidagi huquqlarga yega:

- a) o'quv zallari, kutubxonalar va boshqa o'quv-yordamchi muassasalardan, shuningdek institut sport bazalari va inshootlaridan foydalanish;
- b) kafedralarda talabalar ilmiy jamiyat tomonidan tashkil etilgan ilmiy to'garaklarda ilmiy tadqiqot ishlarida qatnashish;
- v) mavjud qonunchilikka asosan stipendiya olish va h.k.

### TALABANING ISH KUNI VA VAQTNI TO'G'RI REJALASHTIRISH

Yangi hayotingizni muvaffaqiyatli tashkil yetishning muhim shartlaridan biri faoliyatning barcha turlarini oqilona va maqsadga muvofiq tashkil yetishdir.

Institutda o'quv boshlagan dastlabki kunlardan o'z vaqtingizdan to'g'ri foydalana bilib, uni to'g'ri rejalashtirish juda katga ahamiyatga yega.

Yeng avvalo kun rejimini to'g'ri tashkil yetish kerak. Shuni yaxshi bilish lozimki, ayrim vaqtlarning muntazam bo'lishi va ularni mantiqan to'g'ri navbatlab turish faoliyatingizda muayyan bir ritm paydo bo'lishini ta'minlaydi.

Gigiyenachi olimlar isbotlaganki, rejim to'g'ri tashkil qilingan taqdirda ma'lum vaqtlarga mo'ljallab hosil bo'ladigan refleks faoliyatning nisbatan ancha muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi.

Hamma narsaga alohida vaqt ajratilgan bo'lishi zarur.

Birinchi kurs talabasini o'quv kunini taxminiy rejimini tavsiya yetamiz. Uni diqqat bilan o'rganib chiqing va o'z individual xususiyatlaringizni hisobga olgan xolda foydalaning:

7.00-uyqudan turish

7.30-yuz-qo'lni yuvish, o'rinni yig'ish

7.30-7.50 - nonushta.

7.50-8.20 - institutga borish

9.00-15.20 - institut mashg'ulotlarida bo'lish



11.50-12.30 – tushlik ovqatlanish  
15.30-18.00 - to'garaklarda qatnashish, sport bilan shug'ullanish, turli ijtimoiy-foydali ishda qatnashish, o'z-o'ziga xizmat qilish.  
18.00-19.00 - kechki ovqat  
19.00-22.30 - mustaqil o'quv ishlari, kitob, gazeta, jurnallarni o'qish, teleyeshittirishlarni tomosha qilish. Dam olish.  
22.30-23.00 - uxlashga tayyorlanish, yuvinish, uxlash.  
O'zingiz tuzgan rejimni hisobga olib turib, har haftalik faoliyatingizni rejalashtirib borishingiz mumkin.

### **13. BUXGALTERIYA HISOBINING QISQACHA TARIXI**

Bozor iqtisodiyotiga o'tish buxgalteriya kasbining g'oyatda ma'suliyatli va mashaqqatli yekanligini yana bir bor ko'rsatmokda. Buxgalteriya kasbining sharaflari va mashaqqatli kasb yekanligini tarixga bir nazar tashlash orqali ham sezish mumkin. Xo'jalik hisobi taxminan yeramizdagi 4000 yil ilgari xo'jalik faoliyatining talablari asosida yuzaga kelgan. Ijtimoiy bosqichlarning o'zgarib borishi natijasida hisob obekti ham almashib turgan va 1 chi hisob uslubi - inventarizatsiya 2 chi kontakorrent bilan ya'ni xo'jalik jarayonida shaxslar orasidagi hisob - kitoblarni olib borish bilan to'uldirilgan. Moliyaviy muammolarni aks yettiruvchi yozuvlar ilk bor bundan 4000 yil muqaddam qilinganligi aniqlangan. Xususan, misrlik yer yegallari dalalarni sug'orishda Nil daryosi suvidan foydalanganliklari uchun don va olingan hosillardan soliqlarni to'lash bo'yicha hisob yurishgan. Solikchi yer yegallarining uy devorlarida to'langan soliq, hamda tilxatni bildiruvchi belgilar yordamida yozuvlar qoldirishgan. Arxeologlarni fikricha Mesopotamiyadan topilgan loydan yasalgan jadvallar ham ilk bor hisob tamoyillari paydo bo'lganligidan dalolat beradi.

Hisob tizimlari yeramizdan avvalgi 2000 yilda rivojlangan, ikki yoqlama buxgalteriyaning yelemntlari yesa ilk xristianlik davridagi Rimda paydo bo'lgan. O'rta asrlarga kelib bozor munosabatlari rivojlana boshlagan, lekin xo'jalik faoliyatini baholashning samarali uslublarisiz o'sishga yerishish mumkin yemas. Ikki yoqlama yozuv tizimi 13-14 asrlarda shimoliy Italiyaning ayrim savdo markazlarida qo'llanila boshlagan.

Ikki yoqlama buxgalteriya to'la tizimi ilk bor 1340 yilda aks yettirilgan. Birinchi buxgalteriya hisobi tizimi Luko Pachole ismli roxib tomonidan kiritilgan. U yozgan kitobning nomi «Arifmetika va geometriya summasi, proporsiya va nisbatlar haqidagi bilimlar» yedi. Asosan matematikaga bag'ishlangan bu kitob 1494 yilda yozilgan. Ba'zi olimlarning ta'kidlashicha ushbu mehnatning bir qismi bo'lmish «Schyotlar va yozuvlar haqida risola» aynan buxgalteriya hisobining paydo bo'lishini bildiradi. Bunda birinchi bo'lib schyotlarni yuritish, buxgalter va xaridorlarga qo'yiladigan talablar, ikki yoqlama buxgalteriyaning asosiy g'oyalari ta'rifi, inventarlarning o'zgartirilishi kabi tushunchalar, buxgalteriya balansi tushunchasi va buxgalteriya hisobining asosiy jarayoni bayon qilingan.

«Buxgalter» nemischa soʻzdan olingan boʻlib, bux - kitob, xalter -tutmoq, saqlamoq soʻzidan olingan boʻlib, ilk bor Germaniyada qullanila boshlagan. Buxgalteriya hisobi va nazoratining asosini Yevropa va Amerika buxgalteriya yoʻnalishlari tashkil yetadi. Tarixiy manbalarga koʻra 19 asrning oxiriga kelib buxgalteriya hisobida quyidagi maktab va yoʻnalishlar mavjud boʻlgan: 1. Italiya buxgalteriya maktabi va yoʻnalishi. 2. Fransiya buxgalteriya maktabi; 3. Nemis buxgalteriya yoʻnalishi; 4. Anglo -Amerika buxgalteriya maktabi. Italiyada buxgalteriya hisobini yuritishda huqukiy tomonga ahamiyat berilgan. Uning koʻzga kuringan namoyandalaridan boʻlib F.Villa va boshqalar hisoblanib ularning fikricha buxgalter moddiy qiymatliklarni yemas balki korxonaning moddiy javobgar shaxslarining, yaʼni yuridik va jismoniy shaxslarning huquq va majburiyatlarini hisobga olishi deb hisoblangan. Shunday qilib, buxgalteriya ishlarini tashkil yetilishdan asosiy maqsad nafaqat mablagʻlarni hisobga olish yemas shu bilan birga moddiy javobgar shaxslarning javobgarligini oshirishdir, boshqacha qilib aytganda faqatgina gʻaznadagi pulni yoki ombordagi mol va ashyolarni holatini nazorat qilib qolmasdan, balki kassir yoki omborchining, yaʼni hisobdor shaxslarning javobgarligini ham hisobga olishdir.

## XULOSA

Qadrli birinchi kurs talabalari!

Hajmi kichkinagina ushbu kitobcha talabalik hayotingizning dastlabki kunlarida tugʻilishi mumkin boʻlgan barcha masalalarga javob berib oʻtishi juda qiyin, albatta. Lekin kitobdagi maslahatlar Sizga institutda oʻz oʻrningizni tez topib olib, talabalarning rangba-rang hayotiga dadil aralasha boshlashingizga yordam bera olsa, biz nihoyatda xursand boʻlar yedik.

Pirovardida Sizni yeʼtiborishizni yana bir bor ushbu kitobchadan kelib chiqadigan quyidagi xulosalarga qaratmoqchimiz:

Birinchi, Siz Oliy taʼlim muassasalarining faoliyati bilan, oʻzingiz taʼlim olayotgan Samarqand qishloq xoʻjalik institutining qisqacha tarixi bilan, uning bugungi qaynoq hayoti bilan tanishdingiz. Yendi ana shu oliy dargohga munosib talaba boʻlishga, oʻzingiz tanlagan mutaxassislikni chuqur yegallashga astoydil harakat qiling. Prezident Islom Karimovning "bizga bitiruvchilar yemas, taʼlim va tarbiya koʻrgai shaxslar kerak" degan soʻzlarini doimo yodingizda tuting.

Ikkinchi, Oliy taʼlim olishning oson yemasligini, uning murakkab jarayon yekanligi, oʻziga xos jihatlarini idrok yetdingiz. Xalqimiz ilm olishni "igna bilan quduq qazish"ga tenglashtiradi. Siz ana shu oʻgitga amal qiling, tirishqoqlik bilan oʻqing, jiddiy aqliy mehnat qiling. Shundagina Siz zamonaviy buxgalter-auditor mutaxassis darajasiga koʻtarilasiz va jamiyatda munosib oʻrin yegallaysiz.

Uchinchi, Oliy taʼlimni yegallashda maʼruza mashgʻulotlarining oʻrni va ahamiyatini bilib oldingiz. Yeng muhimi maʼruzani tinglash va uni yozib olish sirlari bilan tanishdingiz. Yendi oʻzingizda maʼruzalarni tinglash

va yozib olish mahoratini shakllantira va takomillashtira boring. Bunday mahorat amaliy faoliyatingizda ham Sizga ko'makchi bo'ladi.

To'rtinchidan, mutaxassis uchun mustaqil dunyoqarash, mustaqil fikr-mulohaza yuritishning naqadar zarurligini anglab oldingiz. Bunday mahoratni shakllantirishda seminar mashg'ulotlarining ahamiyatini tushundingiz. Shuningdek mazkur risola orqali seminarga tayyorgarlik ko'rish, seminar mashg'ulotida o'z fikr-mulohazalarangiz bilan qatnashish, madaniyatli munozara yuritish, boshqalarni yeshita bilish metodikasi bilan tanishdingiz. Yendi o'zingizda ana shunday mahoratni shakllantiring va takomillashtirib boring. Bu mahorat Sizga har qanday vaziyatda dadil turishda, odamlar bilan muloqatda, anjumanlarda va davra suhbatlarida o'z fikringizni mustaqil, yekin, ravon, ishonchli ravishda bayon yetishda hamda o'z faoliyatingiz va korxonangiz faoliyati haqida hisobot berishda doimo hamroh bo'ladi.

Beshinchidan, bilim yegallash, muvaffaqiyatli amaliy faoliyat yuritishning kaliti bo'lmish kitob ustida ishlash mahorati bilan tanishdingiz, zarur kitobni qanday topish yo'llarini bilib oldingiz. Sizga yana bir maslahatimiz shuki, o'zingizga kerakli kitoblarni yig'ib boring, shaxsiy kutubxona tashkil yeting, har bir kitobingiz qanday masalaga doir yekanligi, unda nimalar yoritilganini biling. Shundagina kitob Sizga yordamchi bo'ladi, biror masalani aniqroq bilish zarur bo'lib qolganda qaysi kitobga murojat qilish kerakligini bilasiz va undan kerakli javobni tezroq olasiz.

Sizga hamisha sog'liq xotirijamlik hamda o'qishda, sport va umuman hayotingizda muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Jonajon institutimizning an'alarini yaxshi saqlang va ko'paytira boring, Samarkand kishlok xujalik institutining talabasi degan yuksak nomga munosib bo'ling!

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Ta'lim to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son.
2. O'zbekiston Respublikasining qonuni "[Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida](#)". O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y. 9-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009 yil 7- avgustdagi 276-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi Nizom"
4. "Talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi Nizom" SamQXI Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va tavsiya etilgan (bayonnoma № 1) 2009 yil,29- avgust
5. "Samarqand qishloq xo'jalik institut ichki-tartib qoidalari" Institut rektorining 2009 yil 16 matrtdagi 60-sonli buyrug'i.
6. Samarqand qishloq xo'jalik institutida "Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha" yo'riqnoma. 2009 yil.
7. Yo'ldoshev Z. Birinchi kurs talabalari uchun uslubiy qo'llanma. TMI. Toshkent 1998 y



1	2	Umumiy yuklamaning hajmi		Auditoriya mashg'ulotlari (soatlarda)						Mustaqil ta'lim	1-kurs		2-kurs		3-kurs		4-kurs	
				Jami	Ma'ruza	Amaliy	Laboratoriya	Seminar	Kurs loyihasi (ishi)		Kurslardagi haftalar soni							
											42							
											Semestrlar							
											1	2	3	4	5	6	7	8
Semestrdagi auditoriya mashg'ulotlari haftalarining soni								21	21	21	21	21	10	21	0			
3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19		
1.00	Gumantar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar	1704	23,2	968	282	384		302	1KI	736	11	10	9	6	3	4	6	
1.01	O'zbekiston tarixi	116		66	32			34		50	3							
1.02	Xuquqshunoslik O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi	116		66	32			34		50		3						
1.03	Falsafa (yetika, yestetika, mantiq)	148		84	34			50		64			2	2				
1.04	Manaviyat asoslari. Dinshunoslik	92		52	34			18		40			3					
1.05	Madaniyatshunoslik	56		32	16			16		24				2				



1.06	Iqtisodiy ot nazariyasi	116		66	32			34	K	50	2	2					
1.07	Sosiologiya	56		32	16			16		24					2		
1.08	Pedagogika.Psixologiya	120		68	34			34		52						3	
1.09	Milliy g'oya asosiy tushuncha va tamoyillar	60		34	16			18		26							2
1.10	Siyosashunoslik. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti	112		64	28			36		48							3
1.11	O'zbek (rus) tili	116		66		66				50	2	1					
1.12	Chet tili	324		184		184				140	2	2	2	1	1	1	
1.13	Jismoniy tarbiya va sport	236		134		134				102	2	2	2	1			
1.14	Tanlov fanlari	36		20	8			12		16							1
2.00	Matematik va tabiiy-ilmii fanlar	1176	16	588	294	252	42			588	12	8	4	4			

	Matematik kommunikativ kursi	1008		504	252	210	42			504	8	8	4	4			
2.01	Oliy matematika	336		168	84	84				168	4	4					
2.02	Yehtimollar nazariyasi va matematik statistika	168		84	42	42				84			4				
2.03	Matematik program malash-tirish	168		84	42	42				84				4			
2.04	Informatika va axborot texnologiyalar	336		168	84	42	42			168	4	4					
	Tabiiy ilmiy kurs	168		84	42	42				84	4						
2.05	Iqtisodiy geografiya va yekologiya	168		84	42	42				84	4						
3.00	Umumkasbiy fanlar	2602	35,4	1174	582	592				1428	2		15	11	12	4	14
	Iqtisodiy fanlar kursi	740		336	166	170				404	2		4	4	2		4
3.01	Iqtisodiy ta'limotlar tarixi	94		42	20	22				52	2						

3.02	Mikroiqtisodiyot	186		84	42	42				102				4	2		
3.03	Makroiqtisodiyot	88		42	20	22				46							
3.04	Menejment va marketing asoslari	186		84	42	42				102			4				
3.05	Milliy va jahon iqtisodiyoti	186		84	42	42				102							4
	Hisob va tahlil kursi	838		378	188	190				460			7	3	8		
3.05	Buxgalteriya hisobi nazariyasi	186		84	42	42				102			4				
3.06	Boshqaruv hisobi	186		84	42	42				102					4		
3.07	Iqtisodiy tahlil nazariyasi	186		84	42	42				102					4		
3.08	Statistika	280		126	62	64				154			3	3			
	<i>Moliya va kredit kursi</i>	1024		460	228	232				564			4	4	2	4	10
3.09	Moliya	186		84	42	42				102			4				
3.10	Pul, kredit va banklar	186		82	40	42				104					2	4	
3.11	Soliq va soliqqa tortish	186		84	42	42				102							4
3.12	Sug'urta ishi	94		42	20	22				52							2

3.13	Moliya bozori va qimmatli kog'ozlar	186		84	42	42				102							4
3.14	Investitsiyalarni tashkil yetish va moliyala shtirish	186		84	42	42				102			4				
<b>4.00</b>	<b>Ixtisoslik fanlari</b>	<b>740</b>	<b>10</b>	<b>374</b>	<b>186</b>	<b>188</b>			<b>3 KI</b>	<b>366</b>			<b>4</b>	<b>2</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	
4.01	Moliyaviy hisob	248		126	62	64			K	122			4	2			
4.03	Audit	246		124	62	62			K	122						4	4
4.04	Moliyaviy va boshqaruv tahlili	246		124	62	62			K	122						4	4
<b>5.00</b>	<b>Qo'shimcha fanlar</b>	<b>450</b>	<b>6,2</b>	<b>248</b>	<b>124</b>	<b>124</b>				<b>202</b>					<b>8</b>	<b>8</b>	
5.01	Harbiy tayyorgarlik	450		248	124	124				202					8	8	
<b>6.00</b>	<b>Tanlov fanlari</b>	<b>672</b>	<b>9,2</b>	<b>456</b>	<b>228</b>	<b>228</b>				<b>216</b>	<b>3</b>	<b>10</b>		<b>3</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	
	<b>JAMI:</b>	<b>7344</b>	<b>100</b>	<b>3808</b>	<b>1696</b>	<b>1768</b>	<b>42</b>	<b>302</b>	<b>4 KI</b>	<b>3536</b>	<b>28</b>	<b>28</b>	<b>28</b>	<b>28</b>	<b>28</b>	<b>28</b>	<b>28</b>
	<b>Malakaviy amaliyot</b>	<b>1188</b>															
	<b>Bitiruv malakaviy ishi</b>	<b>432</b>															

<b>Davlat attestasiya-si</b>	<b>108</b>																
<b>Jami</b>	<b>1728</b>																
<b>Hammasi</b>	<b>9072</b>																

Izoh:.

1. Oliy ta'lim muassasasi ixtisoslik fanlari ro'yxatini tuzishda kadrlar buyurtmachilarining talablarini ye'tiborga oladi
2. Harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari qo'shimcha fanlar blokining soatlari hisobiga, harbiy yig'in yesa ta'til vaqti hisobiga o'tkaziladi. Harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari o'tkazilmaydigan hollarda qo'shimcha fanlar blokining soatlari mehnat bozori va kadrlar buyurtmachilarining talablariga moslanuvchanligi va harakatchanligini ta'minlash uchun Ilmiy Kengash qarori bilan foydalaniladi.
3. O'quv reja asosida oliy ta'lim muassasasi har yili ishchi o'quv rejasini tuzadi. Bunda oliy ta'lim muassasasiga talabalar yuklamasining haftalik hajmini saqlagan holda o'quv fanlari bloki hajmini 5 foizgacha, bloklar tarkibidagi fanlar hajmini 10 foizgacha o'zgartirish huquqi beriladi.
4. O'quv fanlari hajmining kamida 20 foizi mustaqil ta'lim tarzida o'zlashtirilishi shart.
5. Talaba bilimni baholash reyting tizimiga muvofiq o'quv jarayoni davomida amalga oshiriladi (JB – joriy baholash, OB – oraliq baholash, YaB – yakuniy baholash).
6. Bitiruv malakaviy ishini bajarish muddatlari tarkibiga uni himoya qilinishi ham kiritiladi.

O'quv jarayonining tarkibiy qismlari	Haftalar soni	Semestr	Davlat attestasiyasi
Nazariy va amaliy ta'lim	136	1-8	1. Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlardan
Malakaviy amaliyot	22	6, 8	2. Xorijiy til
Davlat attestasiyasi	2	8	3. Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish
Bitiruv malakaviy ishi	8	8	
Ta'tillar	36	1-8	
Jami	204		





